

ISBN: 978-93-86327-58-1

INGLIZ VA O'ZBEK BADIY DISKURSI DINAMIKASIDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING SHARTLANISHI



Authors:

**RUZIYEVA NILUFAR
XAFIZOVNA**



Published by

Novateur Publication

466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030
novateurpublication.org

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGIGIKA
INSTITUTI**

RUZIYEVA NILUFAR XAFIZOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK BADIY DISKURSI DINAMIKASIDA
XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING SHARTLANISHI**

Buxoro-2024

Ushbu monografiya zamonaviy lingvistika sohasida ishlangan bo'lib, xushmuomalalik kategoriyasi va strategiyalarining sotsiopragmatik, sotsiolingvistik aspektini o'rganishga bag'ishlangan.

Ushbu monografiyada keltirilgan nazariy ma'lumotlar va xulosalardan tarjima nazariyasi va amaliyoti, sinxron tarjima, til aspektlari amaliyoti kabi fanlar ma'ruzalarida foydalanish mumkin. Shuningdek, monografiyada zikr etilgan natijalar bo'yicha ma'ruza matnlari tayyorlashda, malakaviy bitiruv ishlari va dissertatsiyalar yozishda, sohaga doir lug'atlar yaratishda foydalanish mumkin.

This monograph was written on the theme of modern linguistics which is devoted to the studies of the category of politeness and strategies of politeness and investigates the sociopragmatic, sociolinguistics aspects of this category.

The practical significance of the monograph was explained by the fact that it can be used in the system of higher education in sociolinguistics, pragmalinguistics, cognitive linguistics, discourse, translation theory and practice in special courses, as well as in the creation of textbooks, manuals and guidelines.

TAQRIZCHILAR:

Yusupova H.O'. - f.f.n., dotsent

Barotova M.B. - f.f.f.d., (PhD) dotsent

KIRISH

Jahon tilshunosligida XX asrning soʻnggi va XXI asrning dastlabki yillarida pragmatik tilshunoslikning mustaqil yoʻnalish sifatida taraqqiy etishi, shu yoʻnalishda turli qoʻllanma va kitoblarning yaratilishi, shu sohani rivojlantirish qiyosiy aspektdagi tadqiqotlar qamrovini kengaytirdi. Tilshunoslikda xushmuomalalik maʼnosi va uning ifodalanish xususiyatlarini har tomonlama tadqiq etish shu yoʻldagi izlanioʻlardan biridir. Uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida yuzaga kelgan oʻzbek tilidagi xushmuomalalik kategoriyasining tadqiqi tilshunosligimiz uchun boy faktik material berish bilan birga tilni amaliy jihatdan oʻrganuvchilar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi tilshunoslik sohasida xushmuomalalik kategoriyasining alohida oʻrganilishi uchun ilk qadam 1960 yillarning oxiri 1970 yillarning boshlarida boshlangan boʻlsada, ushbu tadqiqotmavzusi tilni qoʻllashning ham sotsial, ham lingvistik nuqtai nazardan oʻrganishga bagʻishlanganligi bilan zamonaviy tilshunoslikda dolzarblik kasb etadi. Xushmuomalalik kategoriyasining ingliz va oʻzbek adabiyoti namunalarida ifodalanishi til sathlarining sotsiolingvistik aspektda tahlil etilishi zamonaviy tilshunoslik talablariga hamohangdir. Biron-bir madaniyat alohida mavjud boʻla olmaydi va oʻzining faoliyatida boshqa madaniyatlar tajribasiga ham tayanib keladi. Mazkur oʻzaro taʼsirda madaniyatlarning turli "tillar" muloqoti inkor etib boʻlmaydigan faktlardan hisoblanadi.

Xushmuomalalik hamda asrlar davomida shakllangan hurmat kodeksining qatʼiy meʼyorlari belgilab qoʻyilgan ingliz va ming yilliklar davomida xalq ruhiyatida odob qadriyatlarini tarbiyalab kelgan oʻzbek lisoniy madaniyatida mavjud boʻlgan hurmat yoki xushmuomalalik kategoriyasini ijtimoiy va lisoniy nuqtai nazardan qiyoslab oʻrganish mazkur ishning dolzarbligidan dalolat beradi.

Shunday fikr mavjudki, madaniy tafovutlar asosida kommunikatsiyadagi farqlar yotadi. Bu esa, oʻz navbatida, hozirgi davr jahon tilshunosligining dolzarb

sohalaridan sanalgan sotsiolingvistikaning shakllanishi hamda rivojlanishini taminlab kelmoqda.

Bugungi kunda jahon tilshunosligida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllanib ulgurgan va taraqqiy etayotgan antropotsentrik paradigma doirasida maydonga kelgan tilshunoslikning zamonaviy sohalari til hodisalarini ilmiy va amaliy yutuqlar asosida inson omili bilan bog‘lab o‘rganishni taqozo qilmoqda. Yangi paradigma talabida shakllangan kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi tilshunoslik yo‘nalishlarida keng ko‘lamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida ham til tizimi va inson lisoniy faoliyati mexanizmini til egasi bo‘lgan shaxs, uning lisoniy ongi va tafakkuri, ruhiyati, nutqiy vaziyat, ijtimoiy muhit, xalq madaniyati kabi omillar bilan bog‘liqlikda o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda. Tilni o‘rganishga bu jihatdan yondashuv, o‘z navbatida, jahon tilshunosligida antropotsentrizm g‘oyalarining keng yoyilishiga turtki berdi.

Mazkur monografiya jahon tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lgan sotsiolingvistika yo‘nalishidagi ilmiy ish bo‘lib, unda Sharq va G‘arb lingvomadaniyatlarida xushmuomalalik kategoriyasining ifodalanishi, uning sotsiolingvistik xususiyatlari qiyosiy tahlillar asosida yoritib berilgan.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARI KOMMUNIKATIV KATEGORIYA SIFATIDA.....	12
1.1. Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik kategoriyasi tadqiqi yoʻnalishlari.....	12
1.2. Nutqiy muloqotda hamkorlik va xushmuomalalik tamoyillari va mutanosiblik darajasi	34
I bob boʻyicha xulosa.....	43
II BOB. BADIY DISKURSDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING NAMOYON BOʻLISHI.....	46
2.1. Ingliz lingvomadaniyatida xushmuomalalik kategoriyasining ijtimoiy-lisoniy shartlanishi.....	46
2.2. Oʻzbek lingvomadaniyatida xushmuomalalik kategoriyasining ijtimoiy-lisoniy shartlanishi.....	73
II bob boʻyicha xulosa.....	87
III BOB. INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING QIYOSIY TAHLILI.....	88
3.1. Ingliz va oʻzbek tillarida xushmuomalalik, mavqe va kontekstning sotsiolingvistik kategoriya sifatida voqelanishi	88
3.2. Ingliz va oʻzbek tillarida murojaat shakllari va mulozamat - manziratning sotsiolingvistik kategoriya sifatida voqelanishi	112
III bob boʻyicha xulosa.....	133
XULOSA	132
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	139

I BOB. XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARI KOMMUNIKATIV KATEGORIYA SIFATIDA

1.1. Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik kategoriyasi tadqiqi yo‘nalishlari

Jahondagi madaniy taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarish jarayonlari tilda o‘z ifodasini topadi. Til kishilar o‘rtasidagi muhim aloqa-munosabat vositasi bo‘lishi bilan bir qatorda, milliy qadriyatlar, madaniy taraqqiyot darajasiga oid qarashlarni, til sohibining his-tuyg‘usi, voqelikka, o‘zga shaxslarga, jamiyatga munosabatini ham aks ettiradi. Kishilik taraqqiyotida muloqot qanchalik zarur bo‘lsa, modal munosabatlarni, his-tuyg‘u, ruhiy holatni ifodalash shu darajada ahamiyatlidir. Ayniqsa, ushbu kategoriyaning pragmatik aspektini o‘rganish va tadqiq etish ahamiyati nihoyatda oshib bormoqda. U insoniy munosabatlar mexanizmini aniqlash va insonlar nutqiy muloqotida kommunikativ maqsadlarga erishish uchun yordam beradi. “Fikrlash tarzimizni mustaqillik ruhiga moslashtirish, bir yoqlama tor fikrlashdan voz kechish - bugungi Ma’naviy Tiklanish davrimizning eng muhim masalalaridan biridir”¹. Ushbu teran mazmunli, chuqur mantiqli fikrlar bevosita ilm-fanga, shuningdek, filologiya sohasiga ham aloqadordir. O‘zbek tilshunosligidagi bugungi kunda yaratilayotgan qator tadqiqotlar, izlanishlar aynan shu talablardan kelib chiqadi.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan buyon chet tillarning nazariy asoslarini tadqiq qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Chet tillarni o‘rganish, tadqiq etish shu mamlakat tarixi, madaniyati haqidagi bilimlarni boyitadi, do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini kengaytiradi. Ma’naviyat harakat ko‘nikmasiga, yaratish ko‘nikmasiga aylanganidagina buyuk va qudratli qimmatga ega bo‘ladi. Dunyo tilshunosligidagi bugungi kunda yaratilayotgan qator tadqiqotlar, izlanishlar aynan shu talablardan kelib chiqadi.

¹ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. — Тошкент: Ўзбекистон, 1997. — Б.150.

Ingliz va o‘zbek tilshunosligidagi bugungi kunda yaratilayotgan qator tadqiqotlar, izlanishlar aynan shu talablardan kelib chiqadi. Tilshunoslikda xushmuomalalik ma’nosi va uning ifodalanish xususiyatlarini har tomonlama tadqiq etish shu yo‘ldagi izlanishlardan biridir. Uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy - lisoniy hodisa sifatida yuzaga kelgan o‘zbek tilidagi xushmuomalalik kategoriyasining tadqiqi tilshunosligimiz uchun boy faktik material berish bilan birga tilni amaliy jihatdan o‘rganuvchilar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. *Xushmuomalalik kategoriyasi* – ijtimoiy-lisoniy (sotsiolingvistik) hodisa bo‘lib, lisoniy-nutqiy, semantik-grammatik va uslubiy-intonatsion jihatdan o‘z ifodalanish usul va vositalariga, voqelanish omil va imkoniyatlariga ega bo‘lgan muhim va murakkab, e’tiborga loyiq kategoriyadir². Shu ma’noda ingliz va o‘zbek tilida xushmuomalalik ma’nosini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-lisoniy omillarni o‘rganish, vosita va usullarni tadqiq etish muammosi ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter – millatning o‘ziga xos urf-odati, qadriyat va an’analarini hisobga olmay, o‘rganib bo‘lmaydi. Muloqot axborotning mantiqiy mazmuninigina emas, balki so‘zlayotgan kimsaning ruhiy holati, hissiyoti, istaklarini ham ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda til o‘zining emotiv (emotsional-ekspressiv) funksiyasini bajarishga kirishadi.

Xushmuomalalik kategoriyasining kelib chiqish tabiatini ko‘rib chiqqan X.Grays, J.Goffmann, J.Lich, G.Lakoff, R.Kasper, R.Uats xushmuomalalikning nazariy jihatlarini bilan shug‘ullanganlar³. Xushmuomalalikning psixolingvistik aspektlarini P. Braun va S. Levinsonning “yuzni saqlab qolish”⁴, T.Larinaning “yaqinlashuv va masofa” nazariyasi⁵, J. Aznabayevaning “so‘zlovchi-adresat” oppozitsiyasidagi etik-lingvistik konsepsiyasi tashkil qiladi⁶.

²Содиқова Ш.Б. Ўзбек тилида хурмат категорияси. Монография – Тошкент: ТошШИИ, 2010. – Б.3.

³Goffman, E. Interaction Ritual. Essays on Face-to-Face Behavior. Garden City, New York: Anchor Books, Doubleday & Company, Inc., 1967.; Grice, H.P. Logic and Conversation. In: Cool, P.; Morgan, J. (eds.), Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts. – New York: Akademie Press, 1975. – pp. 41-58.

⁴Brown, P., Levinson, S.C.: Politeness: Some universals in language usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

⁵Ларина Т.В. Категория вежливости в английской и русской коммуникативных культурах. – М.: РУДН, 2003. – 315 с.; Ларина Т. В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. Языки славянских культур. – М.:2009. – 512 с.

⁶Азнабаева Л.А. Этика речевого поведения. Коммуникация: этиколингвистический аспект. под ред. Л.А. Азнабаевой. – Уфа: РИЦБашГУ, 2011. – С. 10-59.

Shu o‘rinda xushmuomalalik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga nazar tashlasak, kategoriyani turlicha tushunish oqibatida bo‘lsa kerak, xushmuomalalik (hurmat ma’nosi, sizsirash hodisasi) ko‘pchilik tillarda alohida kategoriya sifatida o‘rganilmagan; xushmuomalalik ma’nosini ifodalovchi vositalari esa boshqa unsurlar (masalan: modallikni ifodalovchi unsurlar) qatoriga qo‘shib yuborilgan.

Hurmatni tadqiq qilishning lingvistik jihatli leksik, morfologik, sintaktik sathlarda o‘rganish, shuningdek, hurmat fenomenini ifodalovchi birliklarning funksional va semantik xususiyatlarini tavsiflash bilan bog‘liq. Y.G‘ulomov, F.Abdullayev, K.Nazarov kabi olimlar ba’zi morfologik birliklarning, jumladan, ko‘plik affiksining hurmat ifodalash jihatlari haqida to‘xtalanganlar⁷. G‘.Zikrillayev hurmat kategoriyasini fe‘l so‘z turkumi doirasida shaxs-son kategoriyasiga bog‘lab o‘rgangan, H.Hojiyeva xushmuomalalik (hurmat) ma’nosi tadqiqiga semantik maydon nazariyasi asosida yondashib, uning ayrim umumiy jihatlariga to‘xtalgan, Sh. Sodiqova o‘zbek tilshunosligida hurmat ma’nosini alohida, mustaqil kategoriya sifatida, X.Imomova esa turk tilidagi xushmuomalalik (hurmat) kategoriyasini o‘rganib chiqqan⁸. Nutqning akt nazariyasi va kommunikativ maqsadning ifodalanishi Sh.Safarov tomonidan tadqiqqa tortilgan⁹. Yapon tilida xushmuomalalik (hurmat) kategoriyasi ikki xil ifodalanishi ta’kidlangan. Bu haqda V.M.Alpatovning quyidagi fikrlari ahamiyatga molik: “Birinchisi *“adressativ” kategoriya*, bunda so‘zlovchining suhbatdoshga, ikkinchisi *“gonorativ” kategoriya* so‘zlovchining suhbatida so‘z borayotgan o‘zga shaxsga nisbatan ijobiy munosabatini ifodalaydi. Har qaysi kategoriya o‘z ifodalanish shakli va tizimiga ega: *adressativ kategoriya* shakllari fe‘l, predikativ sifat va bog‘lama ko‘rinishida; *gonorativ kategoriya* shakllari esa barcha mustaqil so‘z turkumlari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Adressativ kategoriyada adressativ va noadressativ, gonorativ

⁷Тулямов Я.Г. Из наблюдений над морфологией Ташкентского говора //Материалы по узбекской диалектологии. – Ташкент, 1957 – С.197-208; Абдуллаев Ф. К вопросу о генезисе притяжательных и падежных аффиксов //Вопросы узбекского языка и литературы. – Ташкент, 1961. – С.30-31, Назаров К. Притяжательные аффиксы в узбекских народных говорах: Автореф. дисс. канд. филол. наук.– Ташкент, 1963. – 29 с.

⁸ Зикриллаев Г.Н. Фейлнинг шахс, сон ва хурмат категорияси системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 111 б.;Хожиева Х. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг лисоний-нуткий хусусияти: Филол. фан ном. дисс. – Самарканд, 2001. – 130 б.; Содиқова Ш. Ўзбек тилида хурмат категорияси : Филол. фан ном. дисс. – Тошкент, 2010. – 130 б.; Имамова Х. Турк тилида хурмат категорияси : Филол. фан бўйича фалсафа док. (PhD) автореф. – Тошкент, 2017. – 45 б.

⁹ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. –Тошкент: ЎМЭ, 2008. – Б.71-91.

kategoriyada betaraflik va kamtarlik bildiruvchi shakllar o‘zaro ziddiyat hosil qiladi. *Betaraf shakllar* ham xushmuomalalik, ham kamtarlik ifodalay oladi. Bu shakllarning maxsus qo‘shimchasi yo‘q”. Xorij tilshunosligida xushmuomalalik (hurmat)ni turli jihatdan tadqiqot qilish XX asrning 2-yarmidan boshlandi. P.Braun va S.Levinsonlarning “yuzning saqlanishi” nazariyasi hurmat yo‘nalishida asosiy nazariy manba vazifasini o‘tadi.

“Journal of politeness” ixtisoslashgan jurnali 2005-yildan beri xushmuomalalik sohasidagi tadqiqotlar uchun fanlararo va xalqaro miqyosdagi “Ilmiy poligon” bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Shu davr ichida xushmuomalalik kategoriyasiga doir keng qamrovli tadqiqot yo‘nalishlari bo‘yicha jurnalda 150 dan ortiq ilmiy maqola chop etilgan¹⁰. Xushmuomalalik kategoriyasi va soha tadqiqi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tarixan shakllanishning 3 bosqichida kechgan:

a) birinchi bosqich – grays bosqichi deb nomlanib, lingvofaylasuflar P.Grays va J.Ostinning¹¹ asarlarini qamrab oladi. Shuningdek, bu bosqichga xushmuomalalikning R.Lakoff, P.Braun, S.Levinson, J.Lichlar¹²ning klassik nazariyalari kiradi;

b) ikkinchi bosqich- diskursiv tahlil bilan bog‘liq bo‘lib (postmodernizm), xushmuomalalik kategoriyasining lingvistik tadqiq boqichi hisoblanadi. Bu yondashuv XX asrning 90-yillarida P.Braun va S.Levinsonning universal xushmuomalalik nazariyasidagi turli kamchiliklarga ko‘plab tilshunos olimlarning munosabati sifatida paydo bo‘ldi;

c) uchinchi bosqich – so‘nggi bir necha yil davomida tom ma’noda burilish bo‘lgan bosqich. Bu bosqich xushmuomalalik kategoriyasining sotsiolingvistik

¹⁰ Ерзинкян Е.Л. Лингвистическая категория вежливости: семантика и прагматика. – Ереван, Изд. ЕГУ, 2018. – 410 с.

¹¹ Grice H. P. Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics 3: Speech Acts* (pp. 41-58). – New York: Academic Press. 1975; Grice Herbert Paul. *Studies in the Way of Words*. – Cambridge: Harvard University Press, 1989. – P. 62-77; Austin J. L. *How to Do Things with Words: the William James Lectures Delivered at Harvard University in 1955*. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 178 p.

¹² Lakoff Robin. *Talking Power*. – New York: Basic Books. 1990. – P. 54-65; Brown P., Levinson S. *Universals in language usage: politeness phenomenon* // Ester Goody (ed.) *Questions and politeness: strategies in social interaction*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1978. – P. 56-310; Brown P., & Levinson, S. C. *Politeness. Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press. 1987; Leech Geoffrey. *Principles of Pragmatics*. London: Longman.1983.

tadqiqi boshlangan bosqichdir. Klassik xushmuomalalik nazariyalari orasidan P.Braun va S.Levinsonning universal xushmuomalalik nazariyasi sotsiolingvistikaning keyingi tadqiqi rivojiga katta ta'sir o'tkazdi. Shu nazariya tufayli tilshunos olimlar xushmuomalalikni odamlar o'rtasida kechuvchi sotsio-kommunikativ muloqotning fundamental aspekti sifatida qaray boshlashdi. Bu yo'nalish umume'tirof etgan dolzarblik kasb etib, tadqiqotchilar uchun mayoq bo'lib xizmat qiladi.

Agar klassik xushmuomalalik nazariyalarining asosiy kamchiliklari haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- 1) barcha nazariya modellarida xushmuomalalikning ontologik mavqeyi (statusi) yetarlicha yoritilmagan;
- 2) ularda ifodalangan xushmuomalalik chegaralangan xarakterga ega;
- 3) bu nazariyalar essensialistik xarakterga ega va ularni ratsionalistik prinsip boshqaradi;
- 4) xushmuomalalikning deyarli barcha klassik nazariyalarida qo'pollik (impoliteness) fenomeni nazardan chetda qolgan. Vaholanki, bu fenomendan qochish xushmuomalalikni taqozo etadi.

P.Braun va S.Levinsonlarning universal nazariyasidagi kamchiliklar sifatida quyidagilarni aytib o'tish joiz¹³:

- 1) uning universalligiga shubha borligi;
- 2) mualliflar tomonidan olib borilgan nutqiy akt tahlillari kontekstdan alohida ko'rib chiqilgan;
- 3) xushmuomalalik fenomenining sotsialligiga e'tiborsiz bo'lish;
- 4) adresantga yo'naltirilgan nazariyada mualliflar fikrni ifodalagan adresatga emas, adresantning sotsial mavqeyiga ko'proq urg'u berishgan.

P.Braun va S.Levinsonlarning nazariyasiga qaratilgan tanqidga yetarlicha jiddiy e'tibor qaratishadi va o'zlarining "ijtimoiy obro'" (face)ga ikkinchi monografiyalarining ikkinchi nashrida xushmuomalalikning universallik

¹³Leech G. The pragmatics of politeness. – Oxford University Press, 2014. – P. 87-107.

tushunchasidan voz kechmagan holatda bu tushuncha aniq bir jamiyatda o'z ifodasini topishini yozishadi.

Xushmuomalalikning diskursiv modeli nutqiy etiket doirasida olib boriladi. Nutqiy etiket tushuncha va mazmunni etiket qoidalari asosida verbal yetkazib berishga yordam beradi.

Xushmuomalalikning klassik nazariyalari va diskursiv yondashuvidan farqli ravishda sotsiologik yondashuv xushmuomalalik tahliliga ijtimoiy amaliyot sifatida qaraydi. Ushbu yondashuvda u yoki bu jumladagi ma'no adresant va adresatning o'zaro harakatlar dinamikasiga quriladi.

Jeofri Lich samarali muloqot qoidalarini shaxslararo munosabat doirasida va matn sathida alohida ko'rinishda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi¹⁴. Birinchi guruhga oid qoidalar botiniy nutq jarayonida, ya'ni muloqot birligining maqsadi (intensional qismi) shakllanayotganda, kognitiv faoliyat bosqichida amalda bo'ladi. Ikkinchi guruh qoidalari esa konseptual mazmunning lisoniy voqelanishi jarayonida faollashib, nutqiy tuzilmalarning hosil bo'lishida o'ziga xos tartibga soluvchi mexanizm – regulyator vazifasini o'taydi.

Bayon va ifoda usuli tanlovi esa matn ritorikasi qoidalari bilan bog'liq. So'zlovchi mavjud bo'lgan ritorik zaxira imkoniyatlaridan foydalangan holda tafakkurda yuzaga kelgan va ma'lum illokutiv mazmunga ega bo'lgan konseptni matnga ko'chiradi. Konseptning nutqiy vaziyat matnida voqelanishi aniq bir ifoda shaklini tanlash vositasida amalga oshiriladi.

J.Lich, S.Levinson, P.Braun, R.Lakoff, G.Kasper va boshqalar muloqot boshqaruvida xushmuomalalik (*hurmat*) *tamoyili* uning samarali kechishini ta'minlovchi asosiy manba ekanligini ta'kidlaydilar. Tilshunoslik fanida xushmuomalalik kategoriyasining turli tillarda ifodalanishi, mazmun-ma'no maydoni haqida qator tadqiqotlar bajarilgan. Xushmuomalalik tamoyili ijtimoiy munosabat tamoyilidir. Hamkor – suhbatdosh shaxsiga ehtirom mazmunidagi

¹⁴ Leech Geoffrey. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.; Leech Geoffrey. The pragmatics of Politeness. Oxford University Press, 2014. – P. 369.

ushbu tamoyil lisoniy va nolisoniy muloqotning barcha turlariga xosdir. Hurmat tamoyiliga amal qilgan holdagina ijtimoiy munosabatlar samaradorligiga erishish mumkin, chunki “ijtimoiy muvozanat va do‘stona munosabatni saqlash” muloqotda muvaffaqiyat omilidir. J.Lich xushmuomalalik tamoyilini quyidagicha ta’riflaydi: “Qo‘pol fikr va hukm ifodasini imkoni boricha (mavjud vaziyatni inobatga olgan holda) kamaytirish¹⁵”.

Xushmuomalalik tamoyili maksima – qoidalarini umumlashtirish, ularning tavsifini ixchamlashtirish harakati ham yo‘q emas. Masalan, Robin Lakoff ushbu tamoyilni uch qoidadan iborat¹⁶, deb hisoblaydi:

- 1) suhbatdoshga fikringni majburan uqtirishga harakat qilma;
- 2) suhbatdoshingga tanlash imkonini ber;
- 3) olijanob bo‘lishga harakat qil.

Ushbu qisqa tavsifdan ko‘rinadiki, muallif xushmuomalalik tamoyiliga faqatgina tinglovchiga nisbatan yo‘naltirilgan nutqiy xatti-harakatni belgilovchi kategoriya sifatida qaraydi. Xolbuki, ijtimoiy munosabat faollashuvining namunasi bo‘lgan nutqiy hamkorlik ikkala tomonning ham o‘zaro hurmat-ehtirom qoidalariga rioya etishini talab qiladi.

Sotsiopragmatikaning shakllanishi J.Lich, G.Kasper, P.Braun, S.Levinson, J.Yul kabilar nomi bilan bog‘liq. Penelopa Braun va Stefen Levinson 1987-yilda nashr etishgan hurmat tamoyiliga bag‘ishlangan maxsus risolada “Sotsiolingvistika pragmatikaga tatbiq etilishi lozim” degan shiorni olg‘a surishdi. Lisonning tizimiy ravishda kontekst bilan bog‘liqligini o‘rganish pragmatikaning vazifasidir. Turli ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning turli vaziyatlarda ma’lum pragmatik manbalardan foydalanishi sotsiolingvistik tahlil uchun ham muhimdir.

¹⁵ Leech Geoffrey. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983.: Leech Geoffrey. The pragmatics of Politeness. Oxford University Press, 2014. – P. 369 .

¹⁶ Lakoff Robin. Talking Power. – New York: Basic Books. 1990. – P. 54-65.

Ushbu mualliflar xushmuomalalik tamoyilini ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan nutqiy xatti-harakat, faoliyat strategiyasi sifatida ta'riflashadi. Bunday strategiyaning faollashuvidan maqsad shaxs qadriyatini, hurmatini saqlashdir. Har bir inson ijtimoiy shaxsdir, uning jamoadagi o'rniga nisbatan shaxsiyati, ijtimoiy obrazi belgilanadi. Muloqot aktlarida adresatning ijtimoiy obrazini (face) e'tiborga olish lozim, aks holda "shaxs obraziga tahdid" (face threatening act) yuzaga keladi. Yaxshisi, ushbu obrazni saqlashga, qadrlashga (face saving act) harakat qilgan ma'qul¹⁷.

Biz o'zgalarning hurmatini saqlamoqchi bo'lsak, ularning ijtimoiy qadrini, imidjini saqlashga harakat qilishimiz kerak. Pragmalingvistlar "negativ" va "ijobiy" obrazlarni (negative face and positive face) farqlaydilar. "Negativ obraz" insonning mustaqil bo'lishga, erkin harakat qilishga, hech qanday majburiylikka bo'yin egmaslikka intilishidir. Aytish joizki, ingliz tilidagi negativ so'zi bu atamada hech qanday "yomon" ma'nosini anglatmaydi, u ushbu qo'llanishda positive face atamasi tarkibida positive "ijobiy" tushunchasiga qarama-qarshi qo'yilmoqda. Positive face "ijobiy obraz", o'z navbatida, boshqalarga ma'qul bo'lishga, yoqishga, ularning hurmatiga erishishga bo'lgan istakdir. Boshqacha aytsak, "negativ obraz" alohidalikka, mustaqillikka intilish, "ijobiy obraz" esa jamoada bo'lish ehtiyojidir.

Haus va Kasper 11 kategoriyani o'z ichiga oluvchi xushmuomalalik tuzilish taksonomiyasini taklif etishgan¹⁸. Ular quyidagilar:

1. Xushmuomalalik markerlari (*Politeness markers*). Xushmuomalalik belgilari, ya'ni so'zga qo'shilgan iboralar "adresantga hurmat ko'rsatish va hamkorlikda harakat qilishga chorlash" uchun qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan iboralar: *please*,

¹⁷ Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford Univ. Press, 1996. – 138 p.

¹⁸ Tri Wijayanto. A Pragmatic Analysis of Politeness Strategy in the Coursebook: Look Ahead 2 An English Course For Senior High School Students Year XI. Yogyakarta. 2014. – P. 33

if you wouldn't/don't mind, buyruq gaplarda qo'llaniladigan *will/would* bilan ergashib keluvchi *ajratuvchi so'roq gaplar* (*Close the door, will you/would you?*).

2. Yumshatish xususiyatiga ega sintaktik vositalar (*Play-downs*) Ular beshta kichik toifaga bo'linadi va o'z o'rnida quyidagi to'rtlikda namoyon bo'ladi: o'tgan zamondan foydalanish (*I wondered if . . . , I thought you might . . .*), progressiv jihati o'tgan zamon bilan birga (*I was wondering whether . . . , I was thinking you might . . .*), modal fe'lni o'z ichiga olgan so'roq gaplar (*would it be a good idea . . . , could we . . .*), modal fe'lni o'z ichiga olgan inkor so'roq gaplar (*wouldn't it be a good idea if . . . , couldn't you . . .*).

3. Hamkorlikka undovchi vositalar (*Consultative devices*) Bu orqali muloqot adresantini jarayonga jalb qilishga va taklif qilishga yo'naltiradigan tuzilmalar nazarda tutiladi va ular orqali hamkorlikka chorlanadi. Masalan, *Would you mind. . . , Could you . . .*

4. Ikkinchi darajali birliklari (*Hedges*) aniq taklif berishdan qochishni ifodalovchi vositalar bo'lib, adresatga xohish-istagini bildirish uchun o'z variantini ochiq qoldirishga yo'naltirilgan iboralar.

Masalan, *kind of, sort of, somehow, more or less, rather, and what have you.*

5. Ozaytirma markerlar (*Understaters*) *a bit, a little bit, a second, a moment, briefly.*

6. Modallik markerlari (*Downtoners*). Bu adresant nutqiga modallik ta'sirini beradi. Masalan, *just, simply, possibly, perhaps, really.*


7. Holat-munosabat markerlari (*Committers*). *I think, I believe, I guess, in my opinion.*

8. Oldindan ogohlantirish markerlari (*Forewarning*) turli xil tuzilmalarning keng doirasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan strategiya qaysi adresat YTA (FTA) haqida qandaydir meta izoh beradi (masalan, iltifot ko'rsatish) yoki kutilayotgan holat haqida tasavvur uyg'otadi (masalan, *far be it from me to criticize, but . . . , you may find this a bit boring, but . . . , you're good at solving computer problems*).

9. Leksik ma'noga ega bo'lmagan fonetik fenomenlar (*Hesitators*) leksik bo'lmagan fonetik material bilan to'ldirilgan pauzalar, masalan, *er, uhh, ah* yoki duduqlanish holatlari.

10. Vaziyatga munosabat-ko'lam markerlari (*Scope-staters*) bu taklifda keltirilgan ishlarning holati to'g'risida subyektiv fikrni bildiradi. Masalan, *I'm afraid you're in my seat, I'm disappointed that you couldn't . . . , it was a shame you didn't . . .*

11. Adresanti noma'lum gaplar (*Agent avoiders*) adresant shaxssizlantirilgan propozitsion gaplarga taalluqli bo'lib, shunday qilib, u tanqidni adresantdan umumlashtirilgan agentga qaytaradi. Masalan, majhul nisbat yoki "*odamlar X ni qilmaydilar*" kabi gap qoliplari.



1.1-rasm. Xushmuomalalik markerlarining Haus va Kasper klassifikatsiyasi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mazkur tasnifdagi markerlar muloqotda xushmuomalalikni ta'minlovchi strategiyalarning ma'lum bir ma'noda vazifadosh lisoniy belgilar sifatida ko'zga tashlanadi. Har qanday vaziyatda muloqot ishtirokchilarining diskursiv maqsadidan kelib chiqib tanlanishi bu markerlarni funksional qiymatiga ko'ra qo'llaniladi.

1.2. Nutqiy muloqotda hamkorlik va xushmuomalalik tamoyillari va mutanosiblik darajasi

Lison jamiyatda mavjud bo‘ladi va ma’lum ijtimoiy muhitda alohida shaxslar yoki shaxslar guruhi tomonidan qo‘llaniladi. Demak, lisoniy faoliyatning barcha turlari va bu faoliyatni ta’minlovchi har qanday omil lingvistik tahlil obyekti bo‘lishi mumkin. Bundan, ushbu faoliyat ijrochilari bo‘lmish kommunikantlar – muloqot shaxslari ham istisno emas. Nutqiy muloqot jarayonida faollashuvchi inson faktori bilan bog‘liq doimiy va o‘zgaruvchan xususiyatlar qatoriga professor V.Bogdanov quyidagilarni kiritadi¹⁹:

1) lisoniy qobiliyat; 2) ma’lum millatga mansublik; 3) ijtimoiy-madaniy statusi (ma’lum ijtimoiy guruhga oidlik, kasbi, lavozimi, ma’lumoti, yashash joyi, oilaviy ahvoli); 4) biologik-fiziologik ko‘rsatkichlari (jinsi, yoshi, sog‘ligi, jismoniy nuqsonlar mavjudligi yoki yo‘qligi); 5) ruhiy-psixologik turi (temperament, patologik ko‘rsatkichlari); 6) vaziyatga nisbatan o‘zgaruvchan ruhiy holati (kayfiyat, muvaqqat bilim, maqsadi va qiziqishi); 7) doimiy didi, qiziqish va odatlari; 8) tashqi ko‘rinishi (kiyinishi, o‘zini tutishi, xulq-atvori).

Ushbu qatorga kiritilgan belgilarning o‘z mazmuni va bajaradigan vazifasi jihatidan bir xilda emasligi ko‘rinib turibdi. Ularning nutqiy muloqot mundarijasiga ta’sir kuchi ham har xil. Jumladan, lisoniy qobiliyat belgisini olsak, u mazmundor nutqiy faoliyatning asosiy omilidir. Tilni bilmagan shaxs ushbu faoliyatni ijro eta olmasligi aniq, ammo turli shaxslarning til bilish darajasi har xil. Muloqotning tekis ko‘chishi va suhbatdoshlar hamkorligi yuzaga kelishi uchun ularning til bilish darajasi nisbatan bir xilda bo‘lgani ma’qul

Kommunikantlarning sifatlari muloqot tizimida qanchalik muhim o‘rinni egallamasin, har holda bu tizimning markazida kommunikantlarning *ijtimoiy roli* turadi. Muloqot ishtirokchilarining aynan shu xarakteristikasi nutqiy faoliyatning “qay darajada joriylanishiga obyektiv va subyektiv ravishda o‘z ta’sirini

¹⁹ Богданов В. В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. Языки славянских культур. – Москва, 1999. 28-29 с.

ko'rsatuvchi omil bo'lib xizmat qiladi"²⁰. Insonlarni ma'lum guruhlariga bo'lish, ijtimoiy tabaqalashtirish muammosi bilan sotsiologlar muqaddam shug'ullanib kelmoqdalar.

Yuqorida aytilganidek, ijtimoiy status shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy o'rnini bilan belgilansa, ijtimoiy rolning mundarijasi esa unga ushbu jamiyatda ajratilgan talablar majmuasidan iboratdir. Polyak sotsiologi Yan Shempanskiyning ta'rificha, rol "nisbatan doimiy va o'zaro bog'liq harakatlar tizimidir va bu harakatlar guruh a'zolari uchun xos bo'lgan u yoki bu tarzda namunalar asosida bajarilgan boshqalar harakatlariga javobdir".

Ijtimoiy status va ijtimoiy rol tushunchalari o'zaro bir-birini to'ldiradi. Sotsiolog L.P.Krisin²¹ qiyosi bilan aytganda, status "u kim?" savoliga javob bersa, shaxsning rolini aniqlash uchun "u nima qilyapti yoki qanday faoliyat bilan band?" savoliga javob izlash kerak. Eng asosiysi, shaxsning ijtimoiy mavqeyiga oid ushbu tushunchalar til tizimida bevosita o'z aksini topadi. Lisoniy birliklarning ma'nosida ijtimoiy bo'laklarning mavjudligi masalasi semasiologlarni anchadan buyon qiziqtirib kelayotgan bo'lsa, sotsiologiya va pragmatikada asosiy e'tibor ijtimoiy mavqega oid hodisalarning muloqot tizimidagi o'rniga qaratilmoqda. Keyingi yillarda izchil taraqqiy etayotgan gender tilshunosligining asosiy tadqiq obyekti aynan ijtimoiy belgi bo'lmish jins hodisasining lisoniy faoliyatda aks etishi muammosidir.

Nutqiy muloqotning yuqorida eslatilgan hamkorlik va xushmuomalalik tamoyillari asosan tinglovchi – adresantning "foydasi"ni ko'zlovchi tamoyillardir. Shaxslararo muloqot jarayonida so'zlovchi o'z foydasini ham unutmaydi, u o'z shaxsiyatining qimmatini ko'rsatishga, o'z hurmatini saqlashga urinadi. Shaxsiy qadrini saqlashga yo'naltirilgan tamoyil ko'pincha asimmetrik munosabatlar vaziyatida namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyil, masalan, kinoya mazmunidagi


²⁰ Мўминов С., Расулов Қ. Комуникантларнинг ижтимоий роли ва нутқий мулоқот ҳақида // Услубшунослик ва фразеологиянинг долзарб муаммолари. – Самарқанд: СамДУ, 2007. – Б. 70-72.

²¹ Крысин Л. П. Язык в современном обществе. – Москва: Русское слово, 2012. – 208 с.

nutqiy harakatlar ijrosida faollashadi, chunki tabaqa pillapoyasida yuqoriroq o‘rin egallagan shaxs – so‘zlovchi pastki pog‘onada turgan tinglovchiga kinoya vositasida ta’sir o‘tkazishga harakat qiladi. Kinoya qo‘pollik va qat’iyatni biroz bo‘lsa-da, yumshatish imkonini beradi.

Haqiqatan ham, nutq vaziyati, suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqeyi, ular bajaradigan nutqiy harakatlarning axloqiy-ma’naviy normalarga oid xususiyatlari kabilar muloqot tizimining muhim belgilaridir. Ularni to‘liq bir majmua sifatida tadqiq qilish pragmlingvistika va sotsiolingvistikaning dolzarb vazifalaridandir.

Xushmuomalalik, evfemizm va feys refleksiyasi va ularni voqelantirish mexanizmi haqidagi ilmiy qarashlar tahlili zamonaviy tilshunoslikning asosiy diqqat markazidagi masalalardandir. Lisoniy xushmuomalalikka kommunikativ almashinuvdagi til birliklari va ijtimoiy xulq-atvor normalarining qo‘llanilishi o‘rtasidagi munosabat sifatida qarash kerakligi ko‘pgina olimlar tomonidan ilgari surilgan. Bu taqqoslashda lingvistik va ijtimoiy darajalar o‘rtasidagi shaxslararo muloqotda kutzatiladigan lingvistik xushmuomalalik va ijtimoiy xushmuomalalik qoidalari evfemizm bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan hodisadir. Shu ma’noda leksik evfemizmlar va verbal yumshatishning diskursiv strategiyalari ma’lum nutq aktlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan potensial ziddiyatni kamaytirish yoki umuman yo‘l qo‘ymaslik uchun xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, evfemizm silliqlash uchun kuchli lingvistik vosita vazifasini bajaradi. Shunday qilib, evfemizm, shubhasiz, bilvositalik tarafdorlari Lakoff, Lich, Braun va Levinsonlarning nazariyalarida o‘z ifodasini topgan lingvistik xushmuomalalikning haqiqiy belgisi sifatida tan olinadi²².




²² Crespo Fernández, Eliecer. Euphemistic strategies in politeness and face concerns // Pragmlingüística, 13, 2005. – P. 77-86.

strategiyalar	Soxta-Imperativ gaplar	birliklar (hedgings) Downtoning adverbs Downtoning phrases Shart ergash gapli qo'shma gaplar
---------------	------------------------	--

1.2-rasm. Xushmuomalalik bilan ifodalangan evfemistik mexanizmlar.

Evfemizmni verbal strategiya sifatida o'rnatish va uning xushmuomalalik va feys – obro'ni saqlash muammolariga nisbatan ta'sirini tahlil qilish uchun lingvistik taqiqni o'rganishda odatda kuzatilganidan ko'ra kengroq nuqtayi nazarni qabul qilish kerak. Aslida, evfemizm muloyim lingvistik foydalanish uchun yaroqsiz deb topilgan so'zlar va iboralarni almashtirish uchun ishlatiladigan sof leksik hodisa sifatida qaraladi. Biroq Krespo Fernandez o'zining "Euphemistic strategies in politeness and face concerns" nomli maqolasida evfemizmni qat'iy leksik yondashuv bilangina chegaralanmasligiga ishonishini aytib o'tgan. U evfemizmni nafaqat leksik jarayon sifatida, balki ijtimoiy diskursda o'z aksini topgan lisoniy xatti-harakatlar sifatida ham sodir bo'lishini aytib o'tadi.

Shu nuqtayi nazardan, evfemizm va xushmuomalalik o'zaro bir-biriga bog'liq hodisa bo'lib, hurmat bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji evfemizmlardan keng ko'lamda foydalanishni taqozo etadi. Evfemizmlardagi bilvositalik xususiyati, o'z navbatida, xushmuomalalik kategoriyasiga xos bo'lgan ijobiy (muloqot ishtirokchilarining omma oldidagi obro'sini saqlash) va negativ (ma'qullanishga bo'lgan ehtiyoj) strategiyalar muloqotda ishtirok etayotganlarni xafa qilishni oldini olishni ta'minlaydi va kafolatlaydi.



1.3-rasm. Xushmuomalalik, feys va evfemizm refleksiya.

Shu nuqtayi nazaridan, evfemizm ijtimoiy qarama-qarshilik, ya'ni shaxslararo muloqotda so'zlovchi va adresantning obro'sini saqlagan holda suhbatni ravon davom ettirish va ishtirokchilarni qoniqtiradigan usullardan foydalanishni taqozo etadi. Shu maqsadda suhbatda qo'pol va hurmatsizlikni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan Face-threatening-act – obro' (feys)ga tahdid soluvchi aktlarga misol bo'luvchi direktiv nutqiy aktlardan, ayniqsa buyruq va bevosita so'roq gaplardan foydalanishdan o'zini saqlash muhimdir.

Xushmuomalalik va evfemizm. Verbal xushmuomalalik kooperativ muloqot jarayonida umumiy suhbat strategiyasi sifatida o'zaro almashish, tilni ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilishning asosiy tamoyilini tashkil etadi va turli pragmatik nazariyalarning muhim qismi sifatida ajralib turadi.

Aytish joizki, xushmuomalalik lingvistik xatti-harakatni shakllantiradi. Chunki muloqotda ifodalangan maqsadni xushmuomalalik tamoyiliga (Tact, Generosity, Approbation, Modesty, Agreement and Sympathy) asosan uni hurmat qilish yoki aksincha, undan uzoqlashish orqali namoyon bo'ladi. Demak, xushmuomalalik kommunikativ almashinuvlarda shunday hal qiluvchi o'rin egallaydiki, xushmuomala bo'lish suhbat jarayonida ma'lumot uzatish uchun zarur bo'lgan aniqlikdan ham muhimroq ekanligini ta'kidlash mumkin. Aytib o'tilgan bu fikr izohi sifatida Freyzer o'z tadqiqotida Lakoffning quyidagi xulosasini keltirib o'tgan: "Xushmuomalalik odatda ustun turadi, ya'ni suhbatda aniqlikka erishishdan ko'ra suhbat jarayonida muloqot ishtirokchilarining ko'ngliga tegmaslik yoki xafa qilmaslik muhimroq, deb hisoblanadi²³".

Tilda aks etgan xushmuomalalik kategoriyasining global xususiyatlarida berilganidek, bu konsept har bir olim tomonidan qabul qilingan qarashlar asosida turli nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Verbal xushmuomalalikka nisbatan eng keng tarqalgan yondashuv, lingvistik bilvositalik ijtimoiy xushmuomalalik va hurmat qoidalarini saqlashga yordam beradi.

²³ F. Bruce & William A. Nolen. The association of deference with linguistic form. International Journal of the Sociology of Language. – New York, 1981. – P. 93-109.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, mazkur yondashuv Braun va Levinson tomonidan zamonaviy tilshunoslikka kiritilgan. Ular ham o‘z navbatida Goffmann²⁴ tomonidan taklif qilingan muloqotda so‘zlovchining o‘z ijtimoiy imidjiga tahdidni minimallashtirishga katta yordam beruvchi feys tushunchasini muloqotdagi xushmuomalalik aktlari sifatida qabul qilishadi. Shu bois evfemizm bilvosita verbal strategiyada foydali lingvistik vosita sifatida ajralib turadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, evfemizm va xushmuomalalik bir-biriga bog‘liq hodisalar bo‘lib, xushmuomala bo‘lish zarurati evfemizmlarni sezilarli darajada keng qo‘llashni belgilab beradi. Evfemizm orqali ifodalangan bilvositalik, o‘z navbatida, muloqot ishtirokchilarining ko‘ngliga tegmaslik yoki xafa qilmaslikni amalga oshishi uchun sharoit yaratib beradi va xushmuomalalikni ikki tomonlama – ijobiy va negativ jihatdan ta’minlaydi.

Shuni hisobga olgan holda, evfemizmlarning bosh maqsadi Malinovskiy fatik muloqot deb atagan shaxslararo muloqot²⁵da ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi asosiy diskursiv vazifa bilan mos keladi. Shu maqsadda so‘zlovchi kommunikativ muhitda ijtimoiy hamohanglikni kuchaytirish hamda ishtirokchilar obro‘yini saqlashda evfemistik vositalarga keng ko‘lamda tayanadi. Bu evfemistik vazifa leksik almashtirish (sabstitutsiya), ayniqsa, diskursiv evfemistik strategiya orqali amalga oshiriladi.

Diskursiv strategiyalar. Ijtimoy-madaniy hodisa sifatida xushmuomalalik tamoyillari to‘g‘ridan to‘g‘ri asos bo‘luvchi bilvosita diskursiv strategiyalarning xilma-xil turlari so‘zlovchining ijtimoiy munosabatlarga erishish xohishiga ko‘proq bog‘liq. Shuni ta’kidlash joizki, bu bilvosita verbal usullar ma’no tarkibiga biror o‘zgartirishsiz nutqiy aktlarning illokutiv ta’sirini kamaytirish, minimallashtirishga moyildir. Bunga sabab bilvosita nutqiy aktlar tinglovchiga

²⁴

²⁵ Hudson R.A. Sociolinguistics (2nd ed.). Cambridge Textbooks in Linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 279 p.

ko‘proq tanlov imkoniyatini beradi hamda negativ va noxush ta’sirni kamaytirishga sharoit yaratib beradi.

Shaxslararo muloqotda tushunmovchiliklardan qochish maqsadida tildan foydalanuvchilar quyidagi yumshatuvchi (palliativ) strategiyalarga tayanishadi:

– yumshatuvchi uzr so‘rash iboralarni (*“I’m sorry to say”, “I’m afraid”, “If you forgive my asking” or the more elaborate “I wouldn’t like to appear too inquisitive, but ...”*);

– soxta-imperativ gaplar:

a) ajratuvchi so‘roq gaplar

-Fill the form, will you?

-Don’t be so impatient, will you?

b) modal fe’llar (*may, could, would, should, ...*) bilan ifodalangan gaplar

May I ask you to push the button?  *Push the button.*

I would do it again.  *Do it again.*

c) modallik markerlari (*possibly, perhaps, etc.*)

“Could you possibly help me?”.

d) miqdor ko‘lam markerlari (*in a way, to some extent, by chance, etc.*)

e) shart ergash gapli qo‘shma gaplar – ergash gapda ifodalanadigan ko‘p variantlilik tufayli direktiv nutqiy akt yuzaga keltiradigan dag‘allikni yumshatishda evfemistik maqsad bilan qo‘llaniladi. Buni quyidagi holatda ko‘rish mumkin:

“If I were you, I would take it to the deanary”.

Pirovardida, yuqorida aytib o‘tilgan misollardagi har qanday bilvosita strategiyalar xushmuomalalik orqali ifodalangan evfemik nutq aktlarini yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Shu ma’noda, bu yumshatish uchun qo‘llaniladigan usullar bilvosita muloqot strategiyalarida o‘zi xos manba sifatida ajralib turadi va ham ijobiy ham negativ o‘lchovlarda lingvistik xushmuomalalikning bosh ko‘rsatkichlarini hosil qiladi.

Diskursiv xatti-harakatni yumshatish va soxta imperativ strategiyalar bizni muloqotda evfemistik vositalardan foydalanish haqida muhim ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. Ushbu og‘zaki manbalar ma’lum bir kontekstda kutilgan

rasmiyatchilik darajasiga qarab nutqda turlicha qo'llaniladi. Shunday qilib, muloqotda takt va hurmatning ijtimoiy me'yorilarini saqlash zarurati qanchalik ko'p bo'lsa, yumshatish va bilvosita strategiyalarning soni shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli bu lingvistik mexanizmlarning mavjudligi xushmuomalalik darajasini belgilaydi.

Aslida, ikkita soxta imperativga ega bo'lgan direktiv nutq akti orqali ifodalangan strategiyalar yanada xushmuomala ko'rinishda bo'ladi va ulardan faqat bittasi mavjud bo'lsa, bu ijtimoiy jihatdan mos keladi.

“With all due respect, close the window, if you don't mind”

Vigner yumshatuvchi komponentlar deb atovchi vositalar ham xushmuomalalik darajasiga sezilarli darajada ta'sir qilishini ta'kidlagan²⁶. Shunga qaramay, ushbu olimning ta'kidlashicha, juda uzun evfemistik komponentlar bilan tuzilgan so'roq gaplar istehzo sifatida talqin qilinishi mumkin va shuning uchun adresant dastlab nazarda tutgan ma'no teskari ta'sir ko'rsatadi.

Evfemizm va feys. Yoqimsiz iboralar va jummalarni hisobga olmagan holda, shu narsa ayonki, bevosita nutqiy aktlar va eksplisit yoqimsiz ta'sir etuvchi jumlar bilan ifodalangan assertivlar ham verbal muloqotga kirishgan ikki tomonning ijtimoiy obro'yiga to'g'ridan to'g'ri tahdid sifatida ta'sir etadi.

Goffman tomonidan taklif etilgan feys (ijtimoiy obro') nazariyasi muloqot jarayoni tahlilning bosh unsuri, deb ko'rsatgan. Feys (Face) tushunchasini ishimizda xushmuomalalik strategiyalarining ifodalanishi sifatida qo'llaganmiz. Bu ibora xorij tilshunoslari tomonidan zamonaviy tilshunoslikka kiritilgan bo'lib, o'zbek tilshunosligida shu olimlarning ishlari orqali kirib kelgan. Braun va Levinsonlar feys tushunchasi xushmuomalalik strategiyalari sifatida Goffmanning “feys” tushunchalariga tayanganlar.

O'z o'rnida Goffman ham xitoy konsepsiyasida mavjud bo'lgan mianzi va lian tushunchalariga asoslanganalar. Mianzi (“mee-yan-zer”) – (respect) yoki feys sotsiologik konsepsiyaga ishora qiladi. Biz ko'plab madaniyatlarda inson ijtimoiy

²⁶ Wardaugh R. An Introduction to Sociolinguistics. – Oxford: Blackwell. 1985. – P. 66-84.

vaziyatlarda his qiladigan sharaf, qadr-qimmat, o‘z qadr-qimmatini va obro‘si g‘oyalarini bog‘laymiz. Xitoy konsepsiyasiga ko‘ra, mian “hurmat” ga teng. Mian feysning 3 ta turi bor (losing face, giving face, fighting for face). Xitoy madaniyatiga ko‘ra, mianzi/mian ishoch va hurmat uyg‘otadi, lian esa feysning tavsifidir.

Evfemizm feysning ikki o‘lchovi – ijobiylik va negativlikning har biriga tayangan holda harakatlanadi. Agar muloqotda ishtirokchilar ijtimoiy obro‘yiga negativ ta’sir sezilsa, ishtirokchilar bevosita ta’sirdan qochishga harakat qiladi yoki ziddiyatli taassurotlarni minimallashtirish uchun evfemistik strategiyalar qo‘llanilishi orqali hech qanday tahdid ko‘zda tutilmaganligini ko‘rsatadi.

Natijada, “*Close the window*” direktiv nutqiy akti o‘zidan oldinda joylashgan “*With all due respect...*” yoki o‘zidan keyingi “*... If you don’t mind*” soxta imperativ gapining qo‘llanilishi ehtimoliy ziddiyatli vaziyatni kamaytirish va yumshatishni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, evfemizm, xushmuomalalik va feys, shubhasiz, diskursiv hodisalar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Allan va Burridj bu haqda quyidagicha izoh berib o‘tgan: “Umuman olganda, muloqot ishtirokchilarining nutqida qanchalik feys obro‘yiga va hurmatiga tahdid ehtimoli yuqori bo‘lsa, shunchalik katta ehtimol bilan xushmuomalalik ifodalanadi va o‘z navbatida, evfemizmlar darajasi ham oshib boraveradi²⁷”. Shu asnoda, ijtimoiy diskursga mos ravishda evfemizmlar xushmuomalalik va feys obro‘yini saqlash strategiyalarida asosiy lingvistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

²⁷ Allan Keith, Burridge Kate. *Forbidden Words*. Cambridge University Press, 2006. – P. 88-102.

II BOB. BADIY DISKURSDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING NAMOYON BO‘LISHI

2.1. Ingliz lingvomadaniyatida xushmuomalalik kategoriyasining ijtimoiy- lisoniy shartlanishi

Xushmuomalalik kommunikativ strategiyalar tizimi sifatida. Inglizlar va o‘zbeklarning milliy ongidagi “xushmuomalalik” konseptining turli xil mazmuni ularning kommunikativ xatti-harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlarida, bir xil turdagi aloqa holatlarida amalga oshiriladigan turli xildagi kommunikativ harakatlarda, maqsadlarni amalga oshiradigan turli xil kommunikativ strategiyalar va til vositalarini tanlashda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotimizda biz xushmuomalalikni kommunikativ kategoriya sifatida ko‘rib chiqamiz. Kommunikativ kategoriyalar deganda “shaxsning umumiy muloqot va uni amalga oshirish me‘yorlari haqidagi bilimlarini tartibga soluvchi kommunikativ tushunchalar” anglashiladi. Kommunikativ kategoriyalar insonning kommunikativ ongini aks ettiradi, ular aloqa to‘g‘risida konseptual bilimlarni, shuningdek aloqa me‘yorlari va qoidalarini o‘z ichiga oladi. Kommunikativ faoliyatni tartibga soluvchi kommunikativ toifalar qatoriga tadqiqotchilar muloqot, bag‘rikenglik, kommunikativ daxlsizlik, kommunikativ baholash, kommunikativ

bosim va boshqalarni kiritishadi. Bizning fikrimizcha, muloqotni ta'minlovchi va tashkil etuvchi eng muhim kommunikativ toifalardan biri – xushmuomalalik toifasidir. T.V.Larina ta'kidlaganidek, “xushmuomalalikni belgilashda tarbiyalilik xulqning maqsadidan kelib chiqish kerak²⁸”. V.I.Karasikning fikricha, xushmuomalalik “sherikni unga nisbatan mehrli munosabatiga ishonitirish va o‘zaro mehrli munosabatni yuzaga keltirishdir²⁹”.

Shuning uchun xushmuomala xulq-atvorni suhbatdoshga nisbatan tarbiyalilik, yaxshi xulq-atvor, xayrixohlik va yoqtirishning namoyishi sifatida belgilash mumkin. Shu bilan birga, suhbatdoshga nisbatan yaxshi munosabatni namoyish etish usullari turlicha bo‘lishi mumkinligini yodda tutish kerak. Ular odatda madaniyat turi, ijtimoiy-madaniy munosabatlar va qadriyatlar bilan belgilanadi. Shunday qilib, xushmuomalalik toifasining mazmuni uyg‘un muloqotga qaratilgan kommunikativ strategiya va taktikaning milliy o‘ziga xos tizimidir. Xushmuomalalik odob-axloq bilan chambarchas bog‘liq, ammo ular to‘liq bir-biroviga mos kelmaydi. Nutqiy etiket xushmuomalalikni aks ettiradi. xushmuomalalik etiketni o‘z ichiga olsa-da, etiket qoidalariga qaraganda xushmuomalalik odatda kengroq bo‘ladi.

Etiket – bu kommunikativ me‘yorlar va qoidalar majmui hisoblanadi. Xushmuomalalik – bu haqiqiy muloqotda ishlatiladigan, uyg‘unlik va o‘zaro tushunishga erishishga qaratilgan aloqa strategiyasi va taktikalar tizimi. Xushmuomalalik nizosiz muloqotga hissa qo‘shadigan barcha narsalarni o‘z ichiga oladi, garchi uning ba’zi elementlari (ma’lum bir bosqichda yoki muayyan kommunikativ vaziyatda) etiket me‘yori bo‘lmasligi mumkin, ya’ni odobsiz tarzda xushmuomalali bo‘lish holatlari kuzatiladi. Yuqoridagilar bilan bog‘liq holda xushmuomalalikning quyidagi ta’rifini taklif qilamiz:

Xushmuomalalik – bu milliy o‘ziga xos kommunikativ kategoriya bo‘lib, uning mazmuni uyg‘un, nizosiz muloqot va interfaol kommunikatsiyada ijtimoiy

²⁸ Ларина Т.В. Категория вежливости в английской и русской коммуникативных культурах. – Москва: Изд-во Рос. ун-та дружбы народов. 2003. – С. 56.; Ларина Т.В. Англичане и русские: Язык, культура, коммуникация. – Москва: Языки славянских культур. 2013. – С. 34.

²⁹ Карасик В.И. Язык социального статуса. – Москва: Гнозис. 2002. – С. 34-55.

qabul qilingan me'yorlarga rioya qilishga qaratilgan (kommunikativ xatti-harakatlarning lisoniy va lisoniy bo'lmagan) rituallashgan strategiyalar (shaxslararo aloqani o'rnatish, saqlash va tugatish) tizimidir.

Kommunikativ strategiya – kommunikativ ta'sir jarayonini qurishning umumiy stereotiplari bo'lib, kommunikativ maqsad bilan belgilanadi, muloqot sharoitlari va kommunikantlarning shaxsiy xususiyatlariga bog'liqdir. Nutqiy darajada kommunikativ strategiya – bu nutq harakatlarining kommunikatsiya maqsadi va uni amalga oshiradigan umumiy qabul qilingan til vositalari bilan o'zaro bog'liqligi hisoblanadi. Binobarin, verbal (nutqiy) xushmuomalalik kommunikativ strategiyalar tizimi va ularga xizmat qiladigan umume'tirof qilingan til vositasidir³⁰.

Kommunikativ strategiya moslashuvchanlik va dinamika bilan ajralib turadi va muloqot paytida doimiy ravishda tartibga solinadi, shuning uchun xushmuomalalik strategiyalarning moslashuvchan tizimidir. Binobarin, aloqa jarayonida kommunikantlar ma'lum kommunikativ strategiyalar va til vositalarini tanlash orqali o'zlarining kommunikativ xatti-harakatlarini sozlashlari mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, xushmuomalalik tabiatan nisbiydir, uning aniq mazmuni milliy, o'ziga xos xususiyatdir. Ushbu o'ziga xoslik nafaqat turli xil etiket formulalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, balki, birinchi navbatda, yo'nalishi ijtimoiy-madaniy parametrlar bilan belgilanadigan turli xil kommunikativ strategiyalar, kommunikativ harakatlar, ijtimoiy munosabatlar turi va hukmronlik qilayotgan madaniy qadriyatlar orqali namoyon bo'ladi.

Turli xil til madaniyat vakillari tomonidan bir xil aloqa sharoitida amalga oshiriladigan kommunikativ harakatlarning qiyosiy tahlili ularning har biri uchun eng ko'p tipik kommunikativ strategiyalarni aniqlashga va ularga asoslanib, boshqa lingvoijtimoiy-madaniy vakillar bilan muloqot qilishda bajarilishi kerak bo'lgan tavsiyalar yoki kommunikativ qoidalarni shakllantirishga imkon beradi.

³⁰ Ерзинкян Е.Л. Концепт вежливости в свете теории речевых актов // Иностранные языки в школе, 4-5. – Ереван 2009. – С. 62-73.

Inson – bu atrofdagi odamlarning obyektiv idrok aksidir, ulardan har biri o'ziga xos xususiyatlarni, odatlarni yoki g'oyalarni o'zlashtirib oladi va ular asosida o'z navbatida o'z xatti-harakatlarini quradi. Hech bo'lmaganda, siz har kuni ko'rgan qarindoshlaringiz, do'stlaringiz, sinfdoshlaringizga sizning ta'siringiz qanchalik katta ekanligini tasavvur qiling, hatto tasodifiy tanishlar bilan uchrashuv ko'pincha biz uchun qisqa epizod bo'lsa ham, bizning kayfiyatimizga ta'sir qilishi mumkin va ba'zida kunning ritmi shunga bog'liq bo'ladi.

Bizning har birimiz yaxshi so'zlarni eshitishdan va atrofimizdagi odamlarning tabassumlarini ko'rishdan mamnun bo'lamiz. Bu insonga dalda beradi, o'ziga ishonch qo'shadi. Biror kishi doimo ongsiz ravishda unga yaxshi munosabatda bo'lganlarga yaqin bo'lishni xohlaydi. Shu bilan birga, hech birimiz qo'pollik va tajovuzdan mamnun bo'lolmaymiz. Shuni hisobga olgan holda, insoniyat bir-biriga salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun uzoq vaqtdan beri jamiyatda axloq qoidalari va normalari tizimini ishlab chiqdi.

Xushmuomalalik kategoriyasi haqida so'z yuritishdan oldin xushmuomalalik tushunchasining til korpuslari, ya'ni korpus tilshunosligida berilishi haqida so'z yuritsak. Til korpusi va u bilan bog'liq bo'lgan fan, ya'ni korpus lingvistikasi XX asrning oxiri XXI asr boshida tilshunoslik va til o'qitish metodikasiga shiddat bilan kirib kelgan yangi yo'nalishdir. Til korpusini yaratish hamda korpus lingvistikasini rivojlantirish tilshunoslik, til o'qitish metodikasi sohalaridagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Korpus lingvistikasi tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, matn korpuslarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Britaniya Milliy Korpusi bo'lgan Oksford Ingliz Korpusi (THE OXFORD ENGLISH CORPUS) da xushmuomalalik (politeness) so'ziga oid ma'lumotlar, bu tushunchaga yondosh so'zlar, turli janr va uslubdagi mavjud manbalar, adabiyotlar, internet manbalaridan olingan gaplar, matn materiallari keltirib o'tilgan bo'lib, bu shu sohada izlanayotganlar uchun juda foydali ma'lumotlar berilgan. Binobarin, foydalanuvchi (talaba) aniq savollariga javoblar topish, o'rganilayotgan tilning real tabiiy holatini ko'rish, uning tarixiy, geografik, ijtimoiy jihatdan variativligini isbotlash kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Oksford Ingliz Korpusida (THE OXFORD ENGLISH CORPUS) 2

milliarddan oshiq 21-asr soʻzlari keltirib oʻtilgan boʻlib, bu til oʻrganuvchilar uchun soʻzlarning qoʻllanilishi ulkan zaxira hisoblanadi. Oksford Ingliz korpusida soʻzlar asosan 20 soha domenlariga boʻlingan va yana har biri maxsus kategoriyalarga ajratilgan. Xushmuomalalik tushunchasiga oid 561,0260,350 soʻzlar joylangan. Ammo Oʻzbek korpus lingvistikasi hali ham yechimini kutib turgan masaladir. Shabnam Shiri oʻzining “Politeness among Iranians: taarof use in focus³¹” nomli dissertatsiyasida “taorif aynan eron muloqot madaniyatiga xos boʻrttirilgan xushmuomalalik tizimi” ekanligi haqida aytib oʻtgan.

Oʻzbek tilshunosligida Hulkar Komilovna Turdiyeva oʻzining “Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi³²” (fors va oʻzbek tillaridagi materiallar asosida) nomli nomzodlik dissertatsiyasida nutqiy muloqot birliklarini xushmuomalalik (politeness) termini oʻrnida, face (ijtimoiy obroʻ) - feys tushunchasini hurmat ifodasi sifatida qoʻllagan.

Xushmuomalalik deganda, odatda, odamlar bilan hurmat va xushmuomalalik bilan aloqa qilish, murosaga kelish va qarama-qarshi fikrlarni tinglashga tayyorlik tushuniladi.

Braun va Levinson tomonidan tuzilgan xushmuomalalik strategiyalari va substrategiyalari

Bald on-record Strategy	Positive Politeness Strategy	Negative Politeness Strategy	Off- Record Strategies
I. Instances in which threat minimizing does not occur 1) Great urgency or desperation <i>Watch out!</i> 2) Speaking as if great efficiency is necessary in attention getters	1. Notice; attend to Hearer (his interest, wants, need, good): <i>You look sad. Can I do anything?</i> 2. Exaggerate (interest approval, sympathy with Hearer): <i>“You are a fantastic cook, the lunch was great!”</i> <i>“How absolutely marvelous/extraordinary!”</i> 3. Intensify interest to Hearer: <i>“I mean and isn’t it.”</i>	1. Be conventionally indirect: <i>“Can you please shut the door?”</i> 2. Question, hedge: <i>“Mary is a true friend.”</i> 3. Be pessimistic: <i>“You couldn’t give me a cigarette, could</i>	
			1. Give hints: <i>“This soup is a bit bland.”</i> 2. Give association clues: <i>“Are you going to market tomorrow? There is a market tomorrow, I suppose.”</i>

³¹ Shabnam Shiri. Politeness among Iranians: Taarof use in focus. Thesis. – University of Saskatchewan. 2023. 102 p.

³² Турдиева Ҳ.К. Нуткий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи (форс ва ўзбек тилларидаги материаллар асосида) Филол. фан. док. диссертацияси. – Тошкент, 2020. – 167 б.

<i>Hear me out.</i> 3)Task-oriented or Paradigmatic Form of Instruction <i>Pass me the hammer.</i> 4) Little or no desire to maintain someone's face <i>Don't forget to clean the blinds!</i> 5)Doing the face-threatening act is in the interest of the hearer Sympathetic Advice or Warning <i>Your headlights are on!</i> Granting Permission for Something II. Instances in which the threat is minimized implicitly 1)Welcomes <i>Come in.</i> 2)Offers <i>Leave it, I'll clean up later. Eat!</i> 3) Greetings and Farewells 4) Invitations	<i>"I come into his room, and what do you think I see? – a huge mess all over the place and right in the middle, a naked...."</i> 4. Use in-group identifies markers:<i>"Heh, mate, can you lend me a dollar?"</i> <i>"Honey, can you give me the beer?"</i> <i>"Hey brother, what's going on?"</i> 5. Seek agreement: <i>"I hate these politicians, they know nothing about the small citizen, they earn...."</i> <i>"She had an accident last week".</i> <i>"Oh my God, an accident!"</i> 6. Avoid disagreement: <i>"Yes, it's rather long; not short certainly."</i> <i>"Have you got friends? - I have friends."</i> 7.Presuppose/raise/assert common ground: <i>"Isn't it a beautiful day?"</i> <i>And she says to Jim, "I love you!", and he says..."How are you?"</i> 8. Jokes: <i>Wow, that's a whopper!</i> 9. Assert or presuppose Speaker's Knowledge of and concern for Hearer's wants:<i>"Look, I know you want me to be good in mathematics, so shouldn't I do my homework now." (instead of cleaning my room)</i> 10. Offers, promise:<i>"I'll try to get it next week!"</i> <i>"I'll wash the dishes later!"</i> 11. Be optimistic: <i>"You'll lend me your apartment-key for the weekend, I hope."</i> 12. Include both Speaker and Hearer in the activity: <i>"Let's have break! Let's have a kitkat!"</i> <i>"Let's go, girls!"</i> <i>"We will shut the door, ma'am. The wind is coming in."</i> 13. Give (or ask for) Reasons: <i>"Why don't we go shopping or to the cinema?"</i> <i>"Why not lend me your jacket for the weekend?"</i> 14. Assume or assent	<i>you?"</i> 4. Minimize imposition: <i>"I just want to ask if I can borrow a single sheet of paper."</i> 5. Give difference: <i>"We look forward very much to see you again."</i> 6. Apologize: <i>I'm sorry; it's a lot to ask, but can you lend me a thousand dollars?</i> 7. Impersonalize: <i>"We cannot help you."</i> 8. State FTA as general rule: <i>"We don't sit on tables, we sit on chairs."</i> 9. Nominative: <i>"Your performing well on the examinations was impressive to us."</i> 10. Go on record as incurring debt, or as not indebting: <i>"I could easily do this for you."</i>	3. Presuppose: <i>"I washed the car again today."</i> 4. Understate: <i>"It's not half bad" (means that S thinks it's surprisingly good)."</i> 5. Overstate: <i>"I tried to call a hundred times, but there was never any answer."</i> 6. Tautologies: <i>"If I won't give it, I won't."</i> 7. Contradictions: <i>"Well, Jim is here and he is not here."</i> 8. Be ironic: <i>"He's a real genius."</i> 9. Use metaphoric: <i>"John is a real fish."</i> 10. Use rhetorical questions: <i>"How many times do I have to tell you."</i> 11. Be ambiguous: <i>"Jean is a hot cheek."</i> 12. Be vague: <i>"Perhaps someone did something naughty."</i> 13. Over generalize: <i>"Mature people sometimes help do the dishes."</i> 14. Displace Hearer: <i>"Oh God, I forget that I have run out of cash."</i> 15. Be incomplete, use ellipsis: <i>"Oh mom, a headache."</i>
--	--	---	---

	reciprocity: <i>"Yesterday I have washed the dishes, so today it's your turn."</i> 15. Give gifts to Hearer: good, sympathy, understanding, cooperation.		
--	--	--	--

Bevosita strategiya	Ijobiy xushmuomalalik strategiyasi	Salbiy xushmuomalalik strategiyasi	Bilvosita xushmuomalalik strategiyasi
I.Yoqimsiz holatlarni kamaytirish jarayoni bo'lmaydigan holatlar 1) Haddan tashqari shoshilinch yoki umidsizlanish <i>Watch out!</i> 2) So'zlovchining diqqatini tortuvchi iboralarni qo'llash <i>Hear me out.</i> 3)Vazifaga yo'naltirilgan yoki yo'riqnomaning paradigmatic shakli <i>Pass me the hammer, put it aside.</i> 4)Boshqa birovning hurmat ifodasi feys bilan hisoblashmaslik <i>Don't forget to clean the blinds!</i> 5)Tinglovchining hurmat ifodasi (feysi)ga tahdid o'tkazish Do'stona maslahat va ogohlantirishlar <i>Your headlights are</i>	1. Eslatma; tinglovchining qiziqishlari, xohishi, ehtiyoji, mulkiga e'tiborli bo'lish <i>You look sad. Can I do anything?</i> 2. Bo'rttirish (tinglovchiga qiziqishini, hamdardligini ko'rsatish): <i>"You are a fantastic cook, the lunch was great!"</i> <i>"How absolutely marvelous/extraordinary."</i> 3.Tinglovchi qiziqishini kuchaytirish: <i>"I mean and isn't it."</i> <i>"I come into his room, and what do you think I see? – a huge mess all over the place and right in the middle, a naked...."</i> 4. Guruhga taalluqlilik markerlarini qo'llash: <i>"Heh, mate, can you lend me a dollar?"</i> <i>"Honey, can you give me the beer?"</i> <i>"Hey brother, what's going on?"</i> 5. Kelishuvga erishish (Seek agreement): <i>"I hate these politicians, they know nothing about the small citizen, they earn...."</i> <i>"She had an accident last week." Oh my God, an accident!"</i> 6. Kelishmovchilikdan qochish: <i>"Yes, it's rather long; not short certainly."</i> <i>"Have you got friends? - I have friends."</i> 7. Munosabatlarda umumiy asosni taxmin qilish/tasdiqlash: <i>"Isn't it a beautiful day?"</i> <i>And she says to Jim, "I love you!", and he says... "How are you?"</i>	1. Mutlaq bilvosita birliklarni qo'llash <i>"Can you please shut the door?"</i> 2. So'roq gaplar, ikkinchi darajali birliklar: <i>"Mary is a true friend?"</i> 3. Umidsizlanish (pessimistik): <i>"You couldn't give me a cigarette, could you?"</i> 4. Ta'sirni minimallashtirish: <i>"I just want to ask if I can borrow a single sheet of paper."</i> 5. Befarq emasligini bildirish: <i>"We look forward very much to see you again."</i> 6. UZR so'rash: <i>I'm sorry; it's a lot to ask, but can you lend me a thousand dollars?</i> 7. Shaxsi noma'lum gaplar: <i>"We cannot help you."</i> 8. Qoidalarini umumiy lashtirish: <i>"We don't sit on tables, we sit on</i>	1.Ishora,sha'madan foydalanish: <i>"This soup is a bit bland."</i> 2.Assotsiativ maslahatlar berish: <i>"Are you going to market tomorrow? There is a market tomorrow, I suppose"</i> 3. Harakat bajarilganligini ta'kidlash: <i>"I washed the car again today."</i> 4. Vaziyatga ijobiy maqsadda past baho bilan munosabatda bo'lish: <i>"It's not half bad" (means that S thinks it's surprisingly good).</i> 5. Haddan tashqari oshirib yuborish: <i>"I tried to call a hundred times, but there was never any answer."</i> 6. Tavtologiya <i>"If I won't give it, I won't."</i> 7. Qarama-qarshiliklar: <i>"Well, Jim is here and he is not here."</i> 8. Kinoya ishlatish: <i>"He's a real genius."</i>

on! Ruxsat berish <i>I'll let you go now.</i> II. So'zlovchi feysiga tahdidning implisit ifodalash holatlari 1) Chorlovlar <i>Come in.</i> 2) Taklif <i>Leave it, I'll clean up later. Eat!</i> 3) Salomlashish va Xayrlashish 4) Takliflar (taklifnomalar)	8. Hazillar: <i>"Wow, that's a whopper!"</i> 9. Gapirovchining tinglovchi xohish-istaklari haqidagi ogohlighi va g'amxo'rligini tasdiqlash yoki taxmin qilish: <i>"Look, I know you want me to be good in mathematics, so shouldn't I do my homework now." (instead of cleaning my room)</i> 10. Takliflar, va'dalar: <i>"I'll try to get it next week!"</i> <i>"I'll wash the dishes later!"</i> 11. Optimistik ruhda bo'lish: <i>"You'll lend me your apartment-key for the weekend, I hope."</i> 12. Harakat-faoliyatga so'zlovchi va tinglovchini jalb etish: <i>"Let's have break! Let's have a kitkat!"</i> <i>"Let's go, girls!"</i> <i>"We will shut the door, ma'am. The wind is coming in."</i> 13. Sabab keltirish va sababini so'rash: <i>"Why don't we go shopping or to the cinema?"</i> 14. O'zaro munosabatni qabul qilish yoki tasdiqlash: <i>"Yesterday I have washed the dishes, so today it's your turn."</i> 15. Tinglovchiga hamohang bo'lish: yaxshilik, hamdardlik, tushunish, hamkorlik.	chairs, 9. Nominativ: <i>"Your performing well on the examinations was impressive to us."</i> 10. Mulozamat-manzirat iboralarni suhbatda ishlatish (suhbatdoshga noqulaylik tug'dir-maslik choralarni ko'rish): <i>"I could easily do this for you."</i>	9. Metaforalardan foydalanish: <i>"John is a real fish."</i> 10. Retorik so'roq gaplardan foydalanish: <i>"How many times do I have to tell you."</i> 11. Noaniqlik: <i>"Jean is a hot cheek."</i> 12. Mavhumlikni ifodalovchi jummalarni qo'llash <i>"Perhaps someone did something naughty."</i> 13. Umumlashtirish: <i>"Mature people sometimes help do the dishes."</i> 14. Tinglovchiga o'z vaziyatini bilvosita etkazish: <i>"Oh God, I forget that I have run out of cash."</i> 15. To'liq bo'lmagan jummalardan, ellipsdan foydalanish: <i>"Oh mom, a headache."</i>
---	---	--	---

Nutq etikasida axloqiy me'yorlar maxsus etik nutq formulalarida mujassamlanadi. Axloqiy formulalar – bu har bir tilda qayd etilgan tez-tez uchraydigan va ijtimoiy ahamiyatga ega kommunikativ niyatlarni ifoda etish usullari hisoblanadi. Xushmuomala odam ularga suhbat davomida salomlashuvdan boshlab to xayrlashuv paytiga qadar rioya etadi.

Qabul qiluvchidan u yoki bu harakatni qilmaslik (*chekmang, chekmang*) iltimosini o'z ichiga olgan salbiy imperativ gaplar ham mavjud, ular ingliz tilida kamtarona nazokat bilan ajralib turadi va o'zbek tilida juda keng tarqalgan.

Ingliz tilida muloyim munosabatda bo'lishni talab qiladigan so'rovni bilvosita ifodalash usullariga aniq ustunlik beriladi. Shuni ta'kidlash kerakki,

so‘rovni bilvosita ifodalash usuli O‘zbekistonda odamlar o‘rtasida o‘rtacha va yuqori darajadagi muloyimlik va madaniyat darajasida keng tarqalgan³³.

So‘rovni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli bu modal fe‘llar bilan ifodalangan so‘roq gaplardir. So‘rovlar har qanday xushmuomalalikning barcha darajalarida bildirilgan hollarda tez-tez uchraydi.

So‘roq gaplar orasida ikkita asosiy tur ajratiladi:

a) obyektga yo‘naltirilgan, ya’ni tinglovchiga yo‘naltirilgan:

Can you give me a lift home?

b) mavzuga yo‘naltirilgan:

Can you get a lift home?

Ingliz tilida turli xil xushmuomalalikni ifodalovchi turli xil modal fe‘llar mavjud. Ular orasida quyidagilarni ta’kidlash kerak:

May / Might (mumkin / mayli) (haddan tashqari muloyim shakl, amalda qo‘llanilmaydi), Will / Would, shuningdek ularning salbiy shakllari.

Will you stop talking, please?

Would you give me a hand, please?

Might I come in?

May I see Mr. Brown?

Can you help me?

Could you help me?

Agar biror kishi ijobiyroq javobga umid qilsa, u o‘z so‘rovini salbiy savol shaklida to‘ldirishi mumkin:

Couldn’t you give me more information?

Adresatga (qabul qiluvchiga) salbiy javob berish imkoniyatini beradigan o‘zbek tilidagi tasdiq shakldagi gaplar emas, balki salbiy shakldagi gaplar muloyimlikni ifodalash shaklidir. Masalan: Aytolmaysizmi, pochta qayerda? Ingliz tilida tasdiq shakldagi so‘roq gaplar xushmuomalalikni belgilaydi. Masalan:

³³ Turdiyeva H. O‘zbek va yapon madaniyatida og‘zaki nutqda ifodalanuvchi xushmuomalalik - “Politeness”ning pragmatik qiyosiy tahlili // “Ayol va zamon “ maqolalar to‘plami. – Toshkent. 2018. – B.155-160.

Could you do that? - Couldn't you do that? O'zbek tilida esa nisbatan inkor shakldagi so'roq gaplar xushmuomalalikni ifodalaydi.

Shuningdek, ingliz tilida quyidagi gap qurilishi ham xushmuomalalikni ifodalashda qo'llaniladi. Biroq bunday gap qurilishi nutqda juda ham keng qo'llanilmaydi:

I will be grateful, if you could do it.

It will be very kind for you, if you can help me.

O'zbek tilida ham bunday gap qurilishi nutqda uchrab turadi, biroq bu holat odatda hol ergash gapli qo'shma gap vositasida ifodalanadi. Masalan: Agar menga yordam bera olsangiz, sizdan minnatdor bo'lardim.

Xushmuomalalik bilan fikrni tinglovchiga yetkazishga ta'sir qiluvchi boshqa omillar ham mavjud.

- xushmuomalalik markeri hisoblanuvchi "iltimos" jumlasini;
- sen/siz (tout/vous) shakllari;
- erkalash-kichraytirish shakllar (*o'g'ilcham, qizcham, Oliyajon*);
- turli xildagi minimizatorlar – vaziyatda qo'llanilayotgan predmet yoki holatning iltimos gaplardagi "sotsial qiymatini" kamaytirib ko'rsatuvchi belgilar;
- iltimosni ifodalovchi so'z va iboralar takrori (*Sizdan o'tinib so'rayman*).

Ingliz tilida bunday modifikatorlar qatori ko'p emas:

- gap so'ngida qo'llaniluvchi iboralar (*will you, would you, could you, right, all right, OK*);
- xushmuomalalik markeri hisoblanuvchi "iltimos" jumlasini;
- *could you perhaps /could you possibly /could you just/do you think you could*;
- erkalatma so'zlar (*dear, honey, my friend*).

Shu tarzda har qanday jamiyatda insonlar o'rtasida muloqot 3 toifadagi xushmuomalalik darajasida kechadi – rasmiy, neytral va yaqinlik.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, xushmuomalalik kategoriyasi intonatsiya orqali ham ifodalanadi, biroq bu hodisa noverbal nutqda kechadigan holat bo'lganligi uchun ilmiy ishimizda buni alohida tadqiq etmadik.

Xushmuomalalik kategoriyasi va uning nutqda ifodalanish usullari, turli kontekstlarda namoyon bo'lish yo'llari bo'yicha ko'pgina olimlar tadqiqot va kuzatishlar olib borishgan. Nutqiy akt bo'lmish direktiv holatdagi jumlar biror kishini ma'lum bir harakatga undash uchun qo'llaniladi.

Teacher : What are you doing over by the window?

Helen: Looking at the birds Miss.

Teacher : And what should you be doing?

Helen: (No answer)

Teacher: Go and sit down now and get on with your writing. (Kundalik muloqotdan)

Direktiv holatni ifodalaydigan nutqiy aktlar ta'sir darajasiga ko'ra xilma-xildir. Biz tinglovchini taklif qilish, buyruq berish orqali o'tirishga undashimiz mumkin. Buyruq gaplar, umuman olganda, imperativ shakllar orqali ifodalanuvchi nutqiy aktlardir. Ingliz tilida tinglovchini biror harakatga xushmuomalalik bilan undashda so'roq va buyruq gaplardan foydalaniladi. Masalan:

Write down. Buyruq gap

You write down. You+Buyruq gap

Could you write down? Modal fe'l ishtirokidagi so'roq gap

Could you please write down? Modal fe'l+please+asosiy fe'l

Write down , will you? Ajratuvchi so'roq gap (tasdiq)

Won't you write down? Inkori so'roq gap

I want you to write down. Darak gap

I'd like you to sit down. Would like+to Infinitive

You would better write down. Darak gap

I wonder whether you can write down. Ikkinchi darajali birliklar+darak gap

Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Garchi biz so'roq va buyruq gaplarni bu holatda buyruq gaplarga qaraganda ko'proq qo'llasak-da, ko'pincha ta'sirchanlik darajasi intonatsiya, ovoz ohangi va kontekstga bog'liq bo'ladi. Yumshoq ohangda aytilgan "write down" jumlasini shunchaki aytib o'tilgan "I want you to write down now" jumlasidan ko'ra ko'proq xushmuomalalikni ifodalashi mumkin.

Nutq aktlarining direktiv holatdagi suhbatning eksplitsit xushmuomalalikning analizi jarayonida iltimosga taalluqli nutq etiketi vaziyatlari ko'rib chiqildi, iboraning formal hurmat darajasi aniqlandi. Iltimosda ishlatiladigan shakl adresant va adresatning ijtimoiy holatiga bog'liq.

Muloqot ishtirokchilari ma'lum bir kontekstda qaysi bir shakldan foydalanishlari kerakligini qanday hal qiladilar? So'zlovchining direktivning kerakli shaklini tanlashida qanday ijtimoiy faktorlar ta'sir etadi. Bunday faktorlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy yaqinligi, mavqeyi, muloqotning rasmiy yoki norasmiylikda kechishi.

Bir-biri bilan yaqin munosabatdagi suhbatdoshlar ko'proq imperativlardan foydalanishadi. Quyida keltirilgan gaplar oila davrasida kechishi mumkin va hech qanday qo'pollikni ifodalamaydi:

(a) *Take back.*

(b) *Shut up your mouth.*

(c) *Sit around the table, Vali.*

(d) *Don't raise your hands Niso.*

(e) *Wash your hands for dinner, children.*

Umuman olganda, imperativlar ko'p hollarda o'zaro yaqin aloqadagi tanishlar, so'zlovchilar yoki boshliqlar tomonidan qo'llaniladi. So'roq va darak gaplar, shuningdek, shamani ifodalovchi gaplar bir-biriga unchalik yaqin

bo‘lmaganlar o‘rtasida qo‘llaniladi. Biroq bu holatlar ham nisbiy bo‘lib, shamani ifodalovchi gaplar ba‘zan yaqin do‘stlar, qarindoshlar o‘rtasida kulguli vaziyatlarda ham ishlatilishi mumkin. Shifokorning mijozi bilan bo‘lgan suhbatda, ayniqsa, erkak shifokorlar odatda imperativlardan (*eat more fruit*) foydalanishadi. Ayol shifokorlar esa to‘g‘ridan to‘g‘ri buyruq gaplarni (*maybe you could try fresh fruit for dessert*) kamdan kam ishlatishadi.

Lakoff ayollar nutqida kuzatiladigan lisoniy vositalarni quyidagilar etib belgilaydi³⁴:

- ikkinchi darajali birliklar (Leksik hedjlar (you know, sort of, well, you see));
- ajratuvchi so‘roq gaplar (she’s very nice, isn’t she?);
- ko‘tariluvchi intonatsiyada talaffuz etilgan darak gaplar;
- so‘zlovchi yoki yozuvchining emotsional holatini ifodalovchi sifatlar;
- rang nomlari (magenta, aquamarine);
- kuchaytiruvchi iboralar;
- o‘ta to‘g‘ri shakllangan grammatik gaplar;
- xushmuomalalikning superstrategiyalari (bevosita so‘roq gaplar, evfemizmlar);
- qasamni ifodalovchi so‘zlarni qo‘llashdan qochish;
- emfatik urg‘u (it was a fantastic performance).

Verbal gigiyena tushunchasi birinchi bo‘lib ingliz tilshunosi Debora Kameron tomonidan kiritilgan bo‘lib, u bu hodisaga til masalalariga aralashish istagini, ya’ni nutq va yozishni yaxshilash yoki tuzatish yoki tildagi o‘zgarishlarning oldini olish harakatlarini tasvirlash uchun yaratilgan ibora sifatida qaraydi. Kameronning qarashlariga ko‘ra, lingvistik qadriyatlar hissi verbal gigiyenani har bir so‘zlovchining lingvistik kompetentsiyasining bir qismiga aylantiradi, bu esa til uchun unli va undosh kabi asosiy hisoblanadi.

Shuningdek, verbal gigiyena tushunchasi preskriptivizm va lingvistik purizm kabi tushunchalar bilan tanilgan. Allison Djul verbal gigiyenaga quyidagicha

³⁴ Lakoff Robin. Talking Power. — New York: Basic Books, 1990. — P.54-65.

yondashadi: “.... verbal gigiyena tilni his qilishning bir usuli bo‘lib, ijtimoiy dunyoni tartibga solish uchun ramziy urinishni anglatadi³⁵”.

Muloqot ishtirokchilarining impersonalizatsiyasi, ya’ni noaniq-shaxsiy olmoshlar, passiv va shaxssiz konstruksiyalarni ishlatish xushmuomalalikning eng muhim startegiyasi hisoblanadi. Bu jarayonda chunonchi, fe’lni noaniq shaklga solish (“hisoblanadiki”), yoki modal fe’lning qo‘yilishi (“...deb o‘ylash yoqimli”) orqali fe’lning subyektidan diqqat chetga tortiladi. Shaxssiz fe’lni kiritish fikr bilan subyekti o‘rtasidagi aloqani uzmaydi. Adresant tomonidan adresatni harakat qilishga undash, o‘zining shaxsiy talabi emas, balki umumiy qabul qilingan me’yor sifatida murojaat qilishi iltimosning direktivligini kamaytiradi.

(a) *Kompaniyaning nomidan xabar yuborish qabul qilingan.*

(b) *Bizning mahsulotlar kompaniya talablariga muvofiq arzonlashtirilgan.*

Blackboard! (‘Clean the blackboard’)

Bus people! (‘Those who get the school bus should now leave’)

I hear talking. (‘Stop talking’)


(b) misolda diskursda qabul qilingan/ o‘rnatilgan fe’lli ibora qabul qiluvchining passiv adresat konstruksiyasida adresant tomonidan adresatga rasmiy ma’lumotni yetkazishni ifodalashda qo‘llaniladi.

Implitsit xushmuomalalikda rasmiy hurmatning darajasi quyidagi omillar orqali aniqlanadi: to‘g‘ridan to‘g‘ri iltimoslardan qochish, so‘zlovchi va tinglovchining harakatlaridan foyda olish, harakatlarni bajarishdagi mehnat hajmi, iltimos nuqtqiy aktlarida adresatga harakatni amalga oshirish yoki oshirmaslik huquqini berish. Adresatga hal qilish huquqini berish negativ xushmuomalalik strategiyasi hisoblanadi.

Passiv va shaxssiz konstruksiyalarning ishlatilishi, noaniq shaxssiz olmoshlar yordamida iltimos nutq aktlarida impersonalizatsiya strategiyasini aktuallashtirish implitsitning namoyon bo‘lishi hisoblanadi. Rasmiy ish diskursi implitsit xushmuomalalik shaklida ifodalanuvchi nutqiy streotiplar, ekspressiv

³⁵ Allan Keith, Burridge Kate. Forbidden Words. Cambridge University Press, 2006. – P. 88-102.

nutqiy aktlarda kechirim so‘rash va undalma nutqiy aktlarda qat’iy bo‘lmagan, talab etilmaydigan stilistik jihatdan yuqori darajali iltimos shakllarining ko‘p ishlatilishi bilan xarakterlanadi³⁶.



2.1-rasm. Xushmuomalalik nazariyasida ta'sir mexanizmi.

Imperativ tuzilmalar nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi. Ular inglizcha “please” so‘zidan ko‘ra kuchliroq pragmatik ma’noga ega bo‘lgan “iltimos” xushmuomalalik belgisi bilan yumshatilishi mumkin. Ushbu belgi bilan imperativ tuzilma uncha qat’iy va talabchan jaranglamaydi. Shunday qilib, aksariyat hollarda “iltimos” so‘zi bilan so‘z buyruq sifatida emas, balki muloyim iltimos sifatida qabul qilinadi:

- *Endi ayol degani shunaqa qilib tursa, erkak kishi g‘o‘dayib tursa, bo‘lmas ekanda...- dedingiz o‘zingizni oqlagan ohangda.*

- *Bahrom aka, iltimos qilaman, meni avaylasangiz, mening oldimda ayol kishini shunaqa o‘pmang.* [“O‘sha kun” 135-b.]

Raximaxon tirband odamlarni ming azob bilan yorib o‘tib, ularni tufli bozoriga yetakladi.

- *Sizga raxmat, Raximaxon, ovora bo‘ldingiz, bozoringizni bersin, - Mahbuba hozir siri ochiladigandek u bilan tezroq xayrlashishni istardi.* [“O‘sha kun” 141-b.]

Shuningdek, o‘zbek tilidagi kommunikatsiyalarda iltimosni ifodalashda ko‘pincha bilvosita iboralar ishlatiladi:

³⁶ Халмурзаева Н.Т. Япон иш дискурсида хурмат коммуникатив категорияси (прагмалингвистик аспектда) филол. фанлари бўйича фалсафа д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 52 б.

Bir kuni nima bo'ldi-yu, siri fosh bo'lganday, ko'zlaridan yoshlari sizib ketdi. Akram aka bu holni ko'rib Vasilaga iltijo ila shunday «buyruq» berdiki...

- Vasilajon! Ko'zingizda hech qachon yosh ko'rmay! Xo'pmi? Sizga boshqa iltimosim yo'q! [“O'sha kun” 148-b.]

Biroq, bunday tuzilmalar o'zbek muloqot ishtirokchilari uchun rasmiy tuyuladi. Bunday tuzilmalar teng ijtimoiy mavqega ega odamlar bilan muloqot qilishda ishlatilmaydi, bundan tashqari, ba'zi aloqa vaziyatlarida ushbu tuzilmalar istehzoli tusga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli bu konstruksiyalar faqat rasmiy aloqada qo'llaniladi, deb aytish mumkin. O'zbek tilidagi turtki beruvchi iboralar, shuningdek, “siz” olmoshi yoki ikkinchi shaxs ko'plik fe'lining shakli, shuningdek, tez-tez ishlatiladigan stimullar bilan yumshatiladi: mehribon bo'ling, bajaring (bering...); bajara olasizmi (bermoq ...); bajar (ber...), bajaring (bering...), iltimos; eshit, sen, bajaring (bering...); Sizga bajarish (bermoq...) qiyinchilik tug'dirmaydimi; bajarishingni (bermoq...) so'ramoqchiman. Masalan:

Qaynoq choy damlab, oq qand topib keldi. Shirin choyni «iching, iching», - deya Akram akaga tutdi. Akram akaning og'riqdan qoraygan, bug'doy rang, uzunchoq chehrasiga xiyolgina qon yugurdi.

Vasila yig'laguday bo'lib, uning ko'zlariga termuldi.

- Ozgina yaxshimisiz? [“O'sha kun” 149-b.]

O'zbek kommunikatsiyasida yumshatish vazifasi “men” kishilik olmoshini “biz” olmoshi bilan yoki “seniki” olmoshini “bizniki” bilan almashtirish orqali ham amalga oshiriladi. Ushbu shaklda hamdardlik, qayg'urish ifodalanadi. Iltimosni yetkazishning yana bir usuli – so'roq so'zlaridan foydalanish, ammo ular o'zbek tilidagi kommunikatsiyada ingliz tiliga qaraganda ancha kam uchraydi.

Shuningdek, o'zbek kommunikatsiyasida men sendan iltimos qilaman, men astoydil so'rayman, iltimos va boshqalar kabi iboralardan foydalaniladi, ya'ni shubha ma'nosiga ega modifikatorlar o'zbek kommunikatsiyasi uchun deyarli xos emas. Keltirilgan faktlar adresatga ta'sir qilish o'zbek madaniyatida kommunikativ me'yorlarning buzilishi emasligini namoyon qilib turibdi.

Ingliz kommunikatsiyasida iltimosni ifodalash vositalari. Ingliz kommunikativ madaniyati har kimning shaxsiy mustaqilligini hurmat qilish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun suhbatdoshga bosim qilish xos emas. Shunga ko'ra ingliz kommunikantlari o'z iboralarini yumshatishning turli usullaridan foydalanadilar. Ingliz tilida iltimosni ifodalash uchun ko'plab modellar majmuyi mavjud: gapni chalg'itadigan iboralar, modifikatorlar va yumshatuvchi vositalar. Iltimosni ifoda etishning asosiy usuli bilvosita iboradan foydalanishdir. Masalan:

"I won't go far. You'll be able to see me the whole time. I'll take a paddleboat or one of those small rowboats I saw on the dock. I'll be fine." "I just need a half hour, Mr. Donnelly. I'll pay double," I pressed. Now that I was here, I wanted to be done with the task before me.

"All right. Sign here, then. But stay close and watch the clouds." ["What the wind knows" p.50]

Ingliz tilidagi kommunikatsiyada iltimosni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli can/could, will/would modal fe'llari bilan bog'liq. Fe'lni tanlash iboraning xushmuomalalik darajasiga ta'sir qiladi. Iborani would va could fe'li bilan bog'lash uni muloyimroq qiladi. Farazni, taxmin qilishni ifoda etuvchi shartli mayli iboraning bilvositaligini va xushmuomalalik darajasini oshiradi. Masalan:

"Thank you, Deirdre. And if you talk to Maeve, would you thank her for me as well? It meant a great deal to me to find those graves." ["What the wind knows" p.48]

Shuningdek, ingliz kommunikatsiyasida wonder fe'li bilan boshlanuvchi ikkinchi darajali birliklar keng qo'llaniladi. Xuddi shu fe'lning o'tgan zamon shakllari (I wondered, I was wondering va hokazo) maslahat va iltimosni yanada qat'iysizlantiradi. Masalan:

"I'm Anne Gallagher. I was wondering if I could rent a boat for an hour."
"Anne Gallagher?" he asked, his brow furrowed, his voice disbelieving.
"Yes?" I said, drawing out the word. "Is there something wrong?"
He shrugged and shook his head. "Nah. It's nothin'," he grunted. "I can

take you out if you want. There're clouds rollin' in, and I don't like people goin' out alone." ["What the wind knows" p.48]

Bunday formulalar odatda o'zbek tiliga xos emas, chunki bu madaniyat vakillari suhbatdoshga ta'sirini kamaytirishga intilmaydilar. O'zbeklar uchun bunday modellar juda rasmiy, dabdabali va tushunarsiz eshitiladi. Shu tariqa, ingliz kommunikatsiyasi iltimosni ifodalash bilvosita so'roq va tushuntirish iboralari yordamida tavsiflanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Bunday iboralarda adresatga bosim kamayadi, binobarin, xushmuomalalik darajasi oshadi, ya'ni "ifodani bilvosita" strategiyasi amalga oshiriladi.

Shuningdek, ingliz kommunikantlari so'rovni savol shaklida ifodalab, shu bilan tinglovchiga ushbu harakatni bajarish yoki bajarmaslik to'g'risida tanlov beradi va shu tariqa adresat o'zi so'ralayotgan harakatni bajarishi mumkin bo'lgan va bajarmoqchi bo'lgan noaniqliklarini namoyish etadi. Shunday qilib, bir vaqtning o'zida uzoqlashishning ikkita strategiyasi amalga oshiriladi: "tinglovchiga harakatni bajarish yoki bajarmaslik tanlovini berish" va "adresatning istagi haqidagi o'z taxminlarini minimallashtirish".

O'zbek kommunikatsiyasida taklifni ifodalash vositalari. O'zbek kommunikatsiyasida taklifni ifoda etishning eng keng tarqalgan usuli bu to'g'ridan to'g'ri iboralardan foydalanishdir. Odatda, imperativ tushuntirish va so'roq iboralari ishlatiladi, ya'ni o'zbek kommunikantlari tinglovchilarga ingliz kommunikantlari kabi tanlov berishga intilmaydilar, ular niyatlarini to'g'ridan to'g'ri savollar va imperativlar yordamida ifoda etadilar. Masalan:

10) – *Afg'onistonda o'tkazgan kunlarim haqida kitob yozib, kelajak avlodga qoldirmoqchiman. Toki biz nima uchun va kim uchun qon to'kkanimizni bilishsin! Shu maqsadda u yerga borishga qaror qildim. **Mendan yordamingni ayama!** Qariyaning bir-biriga qovushmagan so'zlari uning yolg'on gapirayotgani fosh qildi. Podpolkovnik keksa chekistning nimanidir yashirayotganini sezib qildi.*

– Qobulda vaziyat og‘ir. Otishmalar davom etmoqda. Hozir u tomonga o‘tish xatarli, Pyotr Ivanovich. Vaziyatni bila turib, sizni jo‘natsak bizga ham gap tegib qoladi! – dedi podpolkovnik qariyaning sirini bilish maqsadida.

– Xotirjam bo‘l, Vitya. Qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajali yetgan o‘ladi. [“Afg‘on shamoli” 95-b.]

2) –Yashang-ey, Maqsadbek. Bechora onaning bir umrlik olqishiga qoldingiz.

– Hushiga keldi-a? Qarab turuvdim, – dedi Maqsadbek hech narsa bo‘lmagandek. Keyin qo‘shimcha qildi.

– Shu yerliklarga indamay qo‘ya qolinglar. Ovozani yomon ko‘raman.

– Ie, nimaga, buni hammaga aytish kerak – Oqil aka qat‘iy ohangda gapirdi.

– Oqil aka, meni shu yerdan yayrab ketsin desangiz, aytmang. Endi...bir tasodif bilan... Nima bo‘pti uch yil flotda xizmat qilgan odamga.

– Mayli, bir kun o‘rni kelsa, aytarmiz, - Oqil aka rozi bo‘ldi. [“O‘sha kun”17-b.]

O‘zbek tilida so‘zlashuvchilar deyarli bilvosita iboralardan foydalanmaydi, bundan tashqari, o‘zbek kommunikativ vaziyatidagi bunday iboralar nosamimiy deb qabul qilinishi mumkin.

Taklif qilayotgan o‘zbek so‘zlashuvchisi uchun, birinchi navbatda, tinglovchi ham unga qiziqayotganiga, birga vaqt o‘tkazishni xohlayotganiga ishonch hosil qilish muhimdir, shuning uchun taklif qanchalik to‘g‘ridan to‘g‘ri eshitilsa, uning pragmatik ta’siri shunchalik yuqori bo‘ladi. O‘zbek kommunikativ vaziyatida ushbu takliflar quyidagicha ko‘rinadi:

Bir kuni Toshkentdan Farg‘onaga qaytayotganda, mashinaning oldiga o‘tirgan ekan. Bir hoji odam:

– Qizim, oyog‘im og‘riq, menga joyingizni bersangiz, – debdi.

– Ming marta ota, bemalol o‘tiring, – deb joy bo‘shatibdi.

Yo‘lda haligi odam bir nafasga to‘xtab, namoz o‘qimoqchiligini aytibdi. Qizimiz darrov yonidan joynamoz olib uzatibdi.

– Rahmat qizim, otangizga balli! Quvaga borib, endi dadangizni bir ko‘rish joiz bo‘ldi, qizim, – debdi. Shu otaxon bir kuni Quvaga kirib keldi. Bu qizimiz mana shunaqa tarbiyali, sadoqatli, odamlarga e’tiborli, hushyor, ziyrak edi. Omin

denglar, odamlar. Alloh rahmat qilsin ... ko‘z yoshlari duvillayotgan otaxon iltijo qildi. [“O‘sha kun” 145-b.]

Yuqorida aytib o‘tilgan salbiy xushmuomalalik strategiyalari o‘zbek kommunikatsiyalarida deyarli qo‘llanmaydi, chunki imperativ iboralar orqali amalga oshiriladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri taklifga ustunlik beriladi. Odatda, tinglovchiga, harakatni bajarmaslik imkoniyati berilmaydi. Aksincha, adresatga qo‘shimcha bosim vositalari qo‘llaniladi. Adresat biror amalni bajarishni xohlaydimi, degan savol qo‘yilmaydi. Xullas, o‘zbek aloqalarida bilvosita ifoda va tinglovchiga harakatni bajarish yoki bajarmaslik tanlovini berish strategiyalari deyarli amalga oshirilmaydi. Bu faktlar o‘zbek kommunikativ madaniyatida so‘zlovchining adresatga bevosita ta’siri joiz ekanligidan dalolat beradi.

Ingliz kommunikatsiyasida taklifni ifodalash vositalari. Ingliz takliflari ko‘pincha savol shaklida amalga oshiriladi. Bu bayonotni bilvosita rasmiylashtirish, suhbatdoshga ta’sirini cheklash, unga ushbu taklifni qabul qilish yoki qilmaslikni tanlash huquqini beradi. O‘zbek kommunikantlari ilgari aytib o‘tganimizdek, bunday taklif shakllaridan foydalanmaydi. Bundan tashqari, xushmuomala inglizcha takliflarni o‘zbek kommunikatorlari nosamimiy va hatto soxta deb hisoblashlari mumkin. Standart can/could yoki will/would modal fe’llari ishlatilishi mumkin bo‘lgan odatiy ingliz taklifiga misol keltiramiz:

1) *“Will you pour?” she asked primly.*

“Yes. Yes, I’d be glad to,” I stammered, trying to remember a moment when I’d felt more uncomfortably American. I mentally scrambled for the etiquette, trying to remember what came first.

“Strong or weak?” I asked.

“Strong.”

“Sugar, lemon, or milk?” I asked.

She sniffed. “Plain.” [“What the wind knows” p.31]

2) *“Are you leaving again?” The child’s voice came from the base of my bed, disembodied and startling. Beyond the bars of the brass footboard, someone stood, peering at me.*

“Will you come closer, please?” I asked, breathless. [“What the wind knows” p.60]

3) *We were halfway up before I realized what was wrong with Clarissa.*

“Clarissa, you’re wearing yesterday’s clothes.”

She smirked.

“So would you be, if you’d met yesterday’s man.”

“Oh Clarissa. What am I going to do with you?”

“Pay rise, strong coffee, paracetamol.” [“Little Bee” p.60]

Yuqorida ta’kidlanganidek, taklifni rasmiylashtirish darajasi modal fe’lini tanlashga bog‘liq. Shuningdek, taklif rasmiylashtirilishini tanlash ushbu taklifning maqbulligi yoki nomaqbulligiga bog‘liqdir. Agar taklif maqbul bo‘lsa, unda to‘g‘ridan to‘g‘ri shakl odobsiz harakat sifatida qabul qilinmaydi. Ammo taklif suhbatdoshga nomaqbul ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, so‘zlovchi yuqorida aytib o‘tilgan modal fe’llardan foydalangan holda bilvosita ibora shakliga murojaat qiladi.

Xuddi shu narsa gapning nutqiy harakatiga ham tegishli. Agar biror kishi suhbatdoshning yordam taklifidan mamnun bo‘lishiga amin bo‘lmasa, yanada odobli shakldan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Ingliz kommunikatsiyasida nutq predikatlari bilan kelgan buyruq - so‘roq iborolari unchalik ham odobli deb hisoblanmaydi. Masalan:

“How old are you, Eoin?” my dream-self asked.

“You don’t remember?” he responded.

“No. I’m ... confused. I don’t remember very much. Can you tell me? Please?”

“I’m almost six.” [“What the wind knows” p.61]

Shunday qilib, ingliz kommunikativ madaniyatida taklifni ifodalashda bilvosita ifoda (bilvosita iboralar yordamida), savolni ifodalashda noaniqlik va tinglovchiga harakatni bajarish yoki bajarmaslik tanlovini berish (modal fe’llar va shartli mayl yordamida) strategiyalari amalga oshiriladi.

O‘zbek kommunikatsiyasida maslahatni ifodalash usullari. O‘zbek kommunikativ madaniyati suhbatdoshga ta’sirini yumshatishga qaratilgan bilvosita maslahat shakllari odatiy hisoblanmaydi, chunki o‘zbek so‘zlovchisi, qoida tariqasida, maslahatni suhbatdoshning yuziga tahdid soladigan, uni noqulay holatga keltiradigan harakat sifatida qabul qilmaydi. Shuning uchun suhbatdoshni ma’lum bir harakatga undaydigan imperativ iboralar o‘zbek kommunikatsiyalarida yanada keng tarqalgan:

Onamning yumushlari ko‘p. O‘zidan ortmasa-da, mahallamizdagi qo‘shni ayollarni har kuni tilga oladi.

– *Nortoji enang betob emish, Xoliniso enangni, Mervon enangni ko‘rmaganimga ham ancha bo‘ldi. Ko‘rish kerak.* [“O‘sha kun” 191-b.]

Shuningdek, o‘zbek kommunikatsiyasida modal konstruksiyalar ko‘pincha “*bo‘lardi*” yordamida ifodalangan faraz ma’nosi bilan qo‘llaniladi. Gapda ushbu so‘zning mavjudligi tufayli maslahatning to‘g‘ridan to‘g‘riligi biroz kamayadi.

Shuningdek, maslahatni ifodalash uchun so‘roq iboralaridan foydalanish mumkin, ammo ular maslahatni amalga oshirishning oldingi usullari kabi ko‘p uchramaydi.

Biroq so‘nggi vaqtlarda o‘zbek kommunikatsiyasida g‘arbning muloqot qoidalarini qabul qilish tendensiyasini kuzatish mumkin. Bu birinchi navbatda, tinglovchiga ta’sir darajasini pasaytiradigan bilvosita iboralarni qo‘llashda kuzatiladi:

Uch kun o‘tib, u qo‘ng‘iroq qildi:

– *Movju! Kelavering. Bo‘yab qo‘ydim.*

– *Yolg‘on!*

– *Rost. Ikki soatlik ish ekan-ku! Nima, Sizni aldarmidim!* [“O‘sha kun” b.5]

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, o‘zbek kommunikatsiyasida maslahatni ifodalashning imperativ usuli keng tarqalgan bo‘lib, bu tinglovchiga ta’sirni yumshatmaslik va hatto uni kuchaytirish bilan tavsiflanadi. Shuning uchun, o‘zbek kommunikatsiyasida maslahatni ifodalashda takliflar va so‘rovlarni ifodalash kabi xuddi shu strategiyalardan foydalaniladi.

Ingliz kommunikatsiyasida maslahatni ifodalash usullari. Ingliz kommunikativ madaniyati uchun maslahat ijtimoiy obro‘ (feys)ga tahdid qiluvchi nutqiy harakati bo‘lib, uni suhbatdoshga so‘zlovchining irodasini yuklash, deb baholash mumkin. Shuning uchun ingliz kommunikantlari maslahatni turli usullar bilan yumshatishga harakat qilishadi. Odatda, bu vazifa do‘stona maslahat sifatidagi should/ought to yumshatish modal fe’llari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ingliz kommunikatsiyasida maslahat *Why don’t you... / Nima uchun ...* so‘roq tuzilmasi yordamida ham ifodalanishi mumkin, shuningdek, ko‘pincha do‘stona maslahat uchun qo‘llaniladi:

In other words, I’d disrupted their schedule. “I’ll be glad to help while I’m here,” I assured Delaney again. “Why don’t you take tomorrow off? Maybe go to Birmingham for the day to visit Sawyer?”

“I’d love to—but are you sure you can handle it?” Hope battled with doubt in her eyes.

“Sure,” I lied. “Piece of cake.” I turned to Dad and saw that his eyes were half-open, and he was staring at me. “We’ll be fine, won’t we?” He stood and pointed a finger. “Who are you?” he yelled, shaking with rage. “What are you doing in my house?”

“Calm down, Dad.” Delaney stood and drew his attention. “It’s Violet. Your daughter. Remember, I told you she was coming for a visit? It’s time for your nap.” [“Cold waters” p.21]

O‘zbek kommunikatsiyasida minnatdorchilik, odatda, rahmat, katta rahmat kabi markerlar yordamida ifodalanadi. *Minnatdorchilik bildiraman ...* odatda rasmiy doiradagi suhbatlarda qo‘llaniladi.

O‘zbekcha “rahmat” so‘zi turli xil ma’nolarni anglatishi mumkin: muloyim suhbat ohangini saqlab qolish uchun bildirilgan soxta minnatdorchilikdan tortib, ko‘rsatilayotgan e’tibor yoki xizmat uchun samimiy minnatdorchilikkacha.

O‘zbek kommunikatsiyasida minnatdorchilik, odatda, tinglovchiga bo‘lgan e’tibor va mehrning belgisi bo‘lmaydi, shuning uchun u ehtiyotkorlik bilan,

qisqacha va faqat minnatdorchilik uchun asosli sabab bo'lganda ifodalanadi. Masalan, ko'rsatilgan xizmat, yordam yoki sovg'a uchun bildiriladi.

Shunday qilib, o'zbek kommunikantlari qisqacha minnatdorchilik bildiradi, mubolag'a va giperbolizatsiyadan foydalanmaydi, shuning uchun "tinglovchini payqash, unga e'tibor berish, uning manfaatlari, ehtiyojlari" va "suhbatdoshga qiziqish, xushyoqishlikni bo'rttirish zarurati" kabi ijobiy xushmuomalalik strategiyalari o'zbek minnatdorchilik harakatida amalga oshirilmaydi.

Ingliz kommunikatsiyasida minnatdorchilikni ifodalash vositalari. Ingliz kommunikatsiyasida minnatdorchilik muhim o'rin tutadi. U o'zaro hurmat va e'tiborni namoyon etish vositalaridan biridir.

Odatda, ingliz tilida gapiradigan kishilar o'zbeklarga qaraganda tez-tez minnatdorchilik bildiradilar. Bu muloqotning barcha sohalariga taalluqlidir: do'kondagi xizmatdan tortib muhim rasmiy muzokaralar olib borishgacha bo'lgan holatlarda inglizlar tez-tez va hech qanday sababsiz minnatdorchilik bildiradilar.

Ingliz tilida minnatdorchilik bildirishning eng keng tarqalgan ifoda vositalariga thank you, thanks / rahmat, you're welcome, that's all right, that's ok / hammasi yaxshi, no problem / muammo yo'q, not at all va hokazolar kirib, bular odatda neytral uslubiy bo'yoqqa ega:

"I really appreciate the lift. Thanks for—" He held up a hand. "Keep yer money."
"No way," he insisted. "Glad to help out. Yer sister's got her hands full with yer daddy. You'll be a blessing to them." ["Cold waters". p.13]

Ingliz minnatdorchiligining yana bir o'ziga xos xususiyati – bu inglizlar tomonidan turli xil kuchaytirgichlardan foydalanishda ifodalangan ta'sirchanlik va mubolag'a hisoblanadi: thank you very much/katta rahmat, thank you so much/thank you so very much /kattakon rahmat / many thanks / I'm grateful to... va boshqalar.

"Anytime you want to check on yer stuff, let me know, and I'll unlock the cabinet."

"Thanks. Really, thank you."

A gentle smile tugged the corners of her thick lips, and she patted my arm. "Everything's going to be all right, darlin'. Just hang in there. I'll help you." "Yes, ma'am." I jumped to my feet. "Guess I better get back to the laundry room." Luanne glanced at her watch. "No need. Your shift ends in thirty minutes anyway. Just chill, and I'll cover for you." ["Cold waters". p.79]

Ingliz tilidagi muloqotda minnatdorchilik ko‘pincha turli baholovchi so‘zlar, maqtoqlar yordamida kuchaytiriladi, bu ko‘p hollarda suhbatdoshning fazilatlarini bevosita baholashni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, ko‘rinib turibdiki, ingliz kommunikantlari minnatdorchilik bildirishda tinglovchining manfaatlarini hisobga olishadi, bu tinglovchini payqash, unga e‘tibor berish, uning manfaatlari, ehtiyojlari strategiyasini amalga oshirishdir. Shuningdek, ingliz tilida so‘zlovchilar tez-tez suhbatdoshga qiziqish, xushyoqishlikni bo‘rttirish zarurati strategiyasini amalga oshirib, so‘zlovchiga nisbatan o‘z e‘tiborini faol namoyon etadi.

O‘zbek kommunikatsiyasida kechirim so‘rashning ifodalanishi. Kechirim so‘rash ham eng muhim nutqiy harakatlardan biridir. Uning asosiy vazifasi - adresatni e‘tiborga olish, uni hurmat qilish va u bilan ziddiyatsiz munosabatlarni saqlab qolishga ishontirishdir. O‘zbek kommunikantlari uzr so‘rash uchun, odatda quyidagi nutqiy formulalarni qo‘llashadi: *kechir, kechiring, kechirasiz, ma‘zur tuting, ma‘zur tutasiz, avf et (-ing), uzr, uzr so‘rayman, gunohimdan o‘ting.*

O‘zbekcha kechir (-ing)da adresatga qaratilgan va so‘zlovchiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish uchun rag‘batni o‘z ichiga olgan uzr so‘rovi ifodalanadi. Adresat ushbu so‘rovga u yoki bu darajadagi tayyorgarlik bilan javob berishi mumkin.

Yuqoridagi formulalarda mavjud bo‘lgan harakat maylini quyidagi kuchaytirgichlar yordamida oshirish mumkin: *Xudo Haqqi! / Olloh uchun! Xudo yo‘lida! Azbaroyi xudo!*

Rasmiy nutqda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin: *mening (bizning) uzrimni qabul qiling / uzr so‘rayman (so‘raymiz).* O‘zbek kommunikantlariga kechirim so‘rash uchun sabab kerak, ular ingliz kommunikantlaridan farqli o‘laroq, sababsiz kechirim so‘ramaydi.

Shunday qilib, aytish mumkinki, o'zbek tilidagi kechirim so'rashning ekspressiya darajasi kamroq bo'ladi, ular kechirim so'rash uchun haqiqiy sabab bo'lganda ifodalanadi.

O'zbek kommunikatsiyasida, odatda, kommunikatsiyaning ikkala ishtirokchisi ham emas, balkim qoidani buzgan kishi kechirim so'raydi.

Ingliz kommunikatsiyasida kechirim so'rashning ifodalanishi. Ingliz tilida quyidagi kechirim so'rash formulalari qo'llanadi: (I'm) sorry /excuse me/pardon (I beg your pardon)/ avf et (- ing), kechir (- ing), shuningdek apology, apologies, apologize, regret formulalaridan foydalaniladi.

"Maeve?" I realized suddenly I didn't know her last name. "I'm so sorry. Deirdre didn't tell me your full name. Can I call you Maeve?"

"I know you," she said, her brow — already a topographic map of grooves and alleys — wrinkling even further.

"You do?"

"I do." ["What the wind knows" p.30]

Biroq ushbu formulalardan foydalanish chastotasi va ko'lami bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Apology, apologies, apologize fe'llari bilan birga uzr so'rash og'zaki nutqda juda kam qo'llanadi. Ularning asosiy vazifasi – "munosabatlarning rasmiyligini ta'kidlash, shuningdek, noaniqlikdan qochish, ya'ni uzrni aniq ifodalash". Bunday kechirim so'rashlarni ommaviy e'lonlarda uchratish mumkin (masalan, samolyotning kechikishi, ta'mirlash ishlari, do'konning ishlashidagi o'zgarishlar va boshqalar) va ommaviy e'lonlardan tashqarida kamdan kam hollarda ishlatiladi.

Ingliz tilida kechirim so'rashning eng keng tarqalgan usuli bu (I'm) sorry formulasidir. U muloqotning turli sohalarida qo'llaniladi.

Ushbu formulani tatbiq etishning ikki varianti mavjud: I'm sorry/sorry. Ingliz kommunikanti samimiy kechirim so'rashni xohlaganida birinchi formuladan foydalanadi. Ikkinchi formula, odatda, ko'proq rituallashgan bo'lib, so'zlovchiga e'tibor belgisi sifatida foydalaniladi.

Ingliz tilida uzr soʻrashni kuchaytirish va tinglovchini soʻzlovchining his-tuygʻularining samimiyligiga ishonitirishga xizmat qiladigan juda koʻp turli xil vositalar mavjud. Masalan: very, so, awfully, terribly va boshqalar.

2.2. Oʻzbek va ingliz tilida xushmuomalalik kategoriyasi va uning ijtimoiy-lisoniy voqelanishi

Shu kunga qadar oʻzbek tilshunosligida xushmuomalalik maʼnosi alohida, mustaqil kategoriya sifatida oʻrganilmagan. Ayrim tilshunoslar, jumladan, A.Gʻulomov, Sh.Rahmatullayev baʼzi morfologik birliklarning, xususan, -lar koʻplik affiksining hurmat ifodalash jihatlarini haqida toʻxtalganlar³⁷. Xushmuomalalik maʼnosining egalik affikslari vositasida ifodalanishi mumkinligi haqida K.Nazarov fikr bildirgan³⁸. A.Hojiyev, R.Qoʻngʻurov, Y.Tojiyev, R.Ikromova³⁹ kabi olimlar esa xushmuomalalik (hurmat) maʼnosini modal maʼno ifodalovchi ayrim vositalar qatorida sanab, “modal forma”, “subyektiv baho formasi”, “kichraytirish-erkalash vositalari” kabi atamalar bilan atashgan. Toʻgʻrirogʻi, xushmuomalalikni ifodalovchi morfologik vositalar boshqa kategoriya vositalari bilan qorishiq holda oʻrganilgan. Gʻ.Zikrillayev esa buni feʼl soʻz turkumi doirasida shaxs-son kategoriyasiga bogʻlab oʻrgangan⁴⁰. H.Hojiyeva hurmat maʼnosi tadqiqiga semantik maydon nazariyasi asosida yondashib, uning ayrim umumiy jihatlariga toʻxtalgan⁴¹.

Bu tadqiqotlarning barchasida xushmuomalalikning ifodalanishiga xos xususiyatlarning ayrim jihatlarini qisman oʻrganilgan. Binobarin, xushmuomalalik voqelanishining lisoniy-nutqiy omillari, ifodalanish usullari va vositalariga xos xususiyatlarni mustaqil leksik-grammatik kategoriya tarzida oʻrganish oʻz tadqiqotini kutayotgan masala edi.

37 Гуломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент, 1944. – Б. 56.; Раҳматуллаев Ш. Хурмат формаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973. №1. – Б.28–30.

38 Назаров К. Притяжательные аффиксы узбекских народных говорах: Филол. фан. док. ... диссертация. – Тошкент, 1963. – Б. 19–41.

39 Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 26 б.; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент, 1992.; Икромов Р. Ўзбек тилида отларнинг синтетик, аналитик ва функционал формалари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 117.

40 Зикриллоев Г. Феълнинг шахс, сон ва хурмат категориялари системаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 111 б.

41 Ҳожиёва Ҳ. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Филол. фан. док. ... диссертация. – Самарқанд, 2001. – 130 б.

Sh.Sodiqovanning “O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi” nomli monografiyasida ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida shakllanuvchi (voqelanuvchi) hurmat ma’nosi ilk bor leksik-grammatik kategoriya sifatida tadqiq etilgan⁴². Xushmuomalalik ma’nosi genetik jihatdan tasniflanib, asliy va nisbiy hurmat turlariga ajratilgan. Xushmuomalalik nutqining mazmuniy-vazifaviy yo‘nalishiga ko‘ra turlari aniqlandi hamda xushmuomalalik ifodalovchi morfologik, leksik-semantik, sintaktik-stilistik usullar dalillangan. Xushmuomalalik kategoriyasini tashkil etuvchi vositalar yig‘ilib, ularning tuzilishi, ma’nosi, vazifasi va shakllari tahlil qilingan.

Xushmuomalalik – ko‘p qirrali, keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, ruhiy-mantiqiy, diniy-axloqiy, tarixiy-madaniy qirralarni o‘zida mujassamlashtirgan lisoniy tushuncha; muayyan kategoriya sifatida u yoki bu fan nuqtayi nazaridan maxsus o‘rganilmagan ammo, hurmat va hurmat munosabatlari uzoq tarixiga ega. Bu o‘rinda hurmat va qadriyat uchun mazkur kategoriyani o‘rganilishi tilshunos olimlarimizdan A.G‘ulomov nomi bilan bog‘liq desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Ijtimoiy hurmat nutqiga xos belgilar, yo‘sinlar yo‘nalishlar shu yuqoridagilar bilan cheklanmaydi. Ular *yo‘nalish tarmoqlari* va *mazmuniy-vazifaviy maqsadlarga ko‘ra* turlicha, xilma-xil shakllarda bo‘ladi; ularni qanday va qaysi leksema, qanday va qaysi grammatik (morfologik va sintaktik) shakl qo‘llanganiga, nutqning sintaktik-stilistik qolipiga qarab, yana o‘z ichida kichik turlarga ajratish mumkin⁴³. *Til hodisalarining ijtimoiy omil bilan bog‘liqligi* ayrim tilshunos olimlar tomonidan asoslangan. Keyinchalik bu hodisaga o‘zbek va o‘zbek tilshunosligida ham e’tibor berilgan. *Ijtimoiy omil* deganda, eng avvalo, suhbatdoshlar o‘rtasidagi turli ijtimoiy munosabat ko‘zda tutiladi. O‘zbek tilida

42 Содиқова Ш. Ўзбек тилида ҳурмат маъносининг ифодаланиш усуллари. . Филол. фан. док. ... диссертация. – Тошкент, 2008. – 140 б.

43 Ҳожиёва Х.Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. НДА., Самарқанд. 2001. -22 б.

xushmuomalalik kategoriyasi ijtimoiy-lisoniy hodisa sifatida mavjud bo'lib, o'z leksik-grammatik vositalariga va ifodalanish usullariga egadir.

Shu o'rinda xushmuomalalik kategoriyasining o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, kategoriyani turlicha tushunish oqibatida bo'lsa kerak hurmat ma'nosi, sizsirash hodisasi ko'pchilik tillarda alohida kategoriya sifatida o'rganilmagan; xushmuomalalikni ifodalovchi vositalari esa boshqa unsurlar (masalan: modallikni ifodalovchi unsurlar) qatoriga qo'shib yuborilgan.

1944-yil A.G'ulomov o'zbek tilida xushmuomalalik ifodalanishi haqida birinchilardan bo'lib fikr yuritib, hurmat ma'nosi otning ko'plik qo'shimchasi bilan ifodalanishi haqida batafsil to'xtalib o'tgan.

1973-yilda Sh.Rahmatullayev o'zbek tilshunosligiga "*hurmat formasi*" tushunchasini kiritdi: xushmuomalalikni ifodalovchi *-lar* affiksining ko'plik bildiruvchi *-lar* affiksidan farqlanishini ta'kidlab ko'rsatdi. Buni quyidagicha oddiy tasvirlash mumkin:

-lar I. Kitoblarim – bunda aynan ko'plik, hurmatga betaraflik mavjud.
-lar II. Otamlar – bunda III shaxs birlikka aynan hurmat, ko'plikka betaraflik mavjud. Hurmatning ma'no xususiyati esa boshqa kesimlilik ma'nolari – shaxs, son, zamon, mayllardan farq qilishi ko'rsatiladi: hurmat II va III shaxs shakllari uchun mushtarak hisoblanadi. Otangiz (*otanglar*) – otaga hurmat, akangiz (*akanglar*) – akaga hurmat; *onalari* 90 bahorni ko'ribdilar – onaga hurmat; buvimlar keldilar – *buviga* hurmat (III shaxs birlikka hurmat) *buvilarim* kelishdi - III shaxs ko'plik – “2 ta buvi kelgan”. Hurmat kategoriyasi vositalarining qo'llanishida ijtimoiy omil muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy omilning asosiy *belgisi* nutq jarayoni, imkoniyati, sharoiti, vaziyati va vaqti kabilardir.

1991-yilda xushmuomalalikning olmoshlar doirasida ifodalanish xususiyatlari haqida B.Yusupov o'zining “Местоимения в староузбекском литературном языке” (XV-XVI вв.) monografiyasida qimmatli fikrlarni bayon etadi⁴⁴. Yuqoridagilarni xulosalab, shuni aytishimiz mumkinki, “xushmuomalalik

⁴⁴ Юсупов Б. Местоимения в староузбекском литературном языке (XV-XVII вв.). – Ташкент: Фан, 1991. – С. 147.

kategoriyasining lisoniy-nutqiy voqelanish omillari va ifodalanish usullari” masalasi ayni shu kunda o‘zbek tilshunosligidagi fundamental tarzda, yaxlit holda o‘z ilmiy tadqiqini kutayotgan muammo edi.


Xushmuomalalik kategoriyasining voqelanish omillari. O‘zbek tilidagi xushmuomalalik kategoriyasini maxsus ilmiy-tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish XX asrning 90-yillaridan boshlandi, desak xato bo‘lmaydi.

Xushmuomalalik ijtimoiy-lisoniy kategoriya bo‘lganligi uchun uning mazmun-mohiyati va funksiyasi (vazifasi, qo‘llanishi, shakllanishi) *ijtimoiy omil* bilan belgilanadi. *Ijtimoiy omil deganda*, eng avvalo, nutq akti a‘zolarining statusi, ya’ni ijtimoiy va ijtimoiy-demografik turg‘un belgilari hamda ijtimoiy roli nazarda tutiladi. *Ijtimoiy rol* deganda kommunikativ munosabat (nutq akti, muloqot xulqi, fikrlashuv, aloqa-aralashuv) a‘zolarining shart-sharoit (matn) va vaziyat bilan bog‘liq belgilari tushuniladi. *Shunga ko‘ra kommunikatsiya a‘zolarining qaysi sinf, tabaqa, guruhga mansubligi, yoshi, kasbi, jinsi, ma’lumoti* kabi ijtimoiy belgilar birinchi darajali omil hisoblanadi; *boshliq-xodim, rahbar-xizmatchi, ustoz-shogird, ota (ona)-farzand, er-xotin, do‘st-do‘st, tanish-notanish, keksa-yosh, quda-quda, quda-qudag‘ay, mahalla-mahalladosh* kabi belgilar ikkinchi darajali omil sanaladi; kommunikatsiyaning *vaqti, o‘rni, sharoiti, vaziyati* kabilar esa uchinchi darajali omildir. Hurmat kategoriyasining mazmuni, shakli, ifodasi va usuli birinchi navbatda ana shu faktorlar bilan belgilanadi.

Xushmuomalalik nutqini ifodalovchi vosita va shakllar. Ma’lumki, egalik kategoriyasi narsa-predmetning uch shaxsdan biriga qaratilganligini, tegishli ekanini bildiradi; bunday hollarda hurmat subyektga (so‘zlovchiga) tegishli bo‘lgan predmet orqali (vositasida) yo‘naltiriladi: a) egalik affikslari so‘zlovchining shaxs va sonini bildiradi. b) xushmuomalalik esa hurmat ifodalovchi grammatik vosita (*hurmatli* leksemasi) orqali ifodalanmoqda.

Xushmuomalalik strategiyalarini tanlashga ta’sir etuvchi omillar. Xushmuomalalik kategoriyasini pragmatik jihatdan tadqiq etishda keng ko‘lamli ishlarni olib borgan J.Lich muloqot jarayonida xushmuomalalik strategiyalarini qo‘llashda Braun va Levinson tomonidan kiritilgan 3 ta omil (Social distance -

ijtimoiy masofa, power - mavqe, rank of imposition - bosim darajasi) hamda ularning ma'lum bir vaziyatdagi ta'siri haqidagi nazariyasiga o'zining qarashlarini bildirgan.



2.2-rasm. Xushmuomalalik strategiyalarning voqelanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Xushmuomalalik darajalarining universal ko'rsatkichlari bo'lgan bunday omillar xushmuomalalikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan muayyan lisoniy strategiyani aniqlaydi. So'zlovchining strategiyani tanlashi mo'ljallangan harakat, uning "og'irligi" deb ataluvchi o'lchovga bog'liq bo'lgan hodisadir. Buni Braun and Levinson taklif etgan quyidagi YTA (FTA) kuchini hisoblovchi formula asosida ifodalash mumkin:

$$O_x = I(S, T) + M(T, S) + T_x$$

Mazkur formuladagi har bir omil kumulativ xususiyatga ega bo'lib, bir-birini taqozo etadi va muloqot jarayonida birgalikda ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy masofa qanchalik katta bo'lsa, adresantning adresat ustidan mavqe kuchi yuqori bo'ladi, tinglovchiga muloqotda bosim ta'siri kuchliroq bo'ladi hamda xushmuomalalik strategiyalarini muvofiq tarzda ko'proq ishlatadi. J.Lichning ta'kidlashicha, muayyan strategiyani tanlashda uchta muhim ijtimoiy-madaniy yoki kontekstual omil, ya'ni adresatning so'zlovchiga nisbatan ijtimoiy mavqe kuchi (M), adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy masofa (I) va ta'sir darajasi (T_x) bilan cheklanadi. Masalan, vaqtni so'rash qarz so'rashga qaraganda kamroq ta'sir

darajasini talab qiladi⁴⁵. Ko‘rinadiki, Braun va Levinson keltirib o‘tgan omillarga J.Lich to‘rt yoki uch o‘lchamli omil sifatida yana 2 ta qo‘shimcha ehtimoliy ta’sir etuvchi omillarni kiritadi⁴⁶. Bular quyidagicha ko‘rinish kasb etadi:

- majburiyat kuchi
- o‘z va o‘zga guruh munosabati

Muloqotda ijtimoiy belgilangan majburiyatlarning kuchi ham mezon sifatida o‘rganilgan. Masalan, talabaning o‘qituvchi oldidagi majburiyatlari, o‘qituvchining talaba oldidagi majburiyatlari mezbanning mehmon oldidagi majburiyatlari, farzandning ota-ona oldidagi majburiyatlari, haydovchining yo‘lovchi oldidagi burchi, xizmat ko‘rsatuvchining mijoz oldidagi burchi kabi omillar muloqotda ishtirok etayotgan tomonlar uchun ma’lum bir strategiyalarni qo‘llashga sabab bo‘ladi.


“O‘z guruh munosabati” va “o‘zga guruh munosabati”da (muayyan bir guruhga mansublik va mansub bo‘lmaslik) darajalari mavjud. Bu omil umumiy xushmuomalalik strategiyalariga ko‘ra muloqotda kim so‘zlovchining “hududi”ga, kim tinglovchining “hududi”ga taalluqliligini ko‘rsatadi. J.Lich fikriga ko‘ra, Yaponiyada odatda er-xotinlar boshqa oila vakillari bilan kechadigan suhbat chog‘ida o‘z juftlari yoki farzandlari haqida maqtoov gaplar ishlatmasliklari madaniyatga xos holat sanaladi. Biroq bunday holat inglizlar uchun tabiiy holat va hattoki, madaniyatlarining bir qismidir ham.

Mazkur omillarni tahlil etadigan bo‘lsak, shu ma’lum bo‘ladiki, o‘z va o‘zga guruh munosabati asosida shakllanadigan suhbatda aniq farqlar seziladi. Xushmuomalalik kategoriyasida daraja masalasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, eng maqbul sotsiopragmatik jihatdan o‘rinli darajani tanlash qadr-qimmat shkalasini to‘g‘ri tanlashga bog‘liq bo‘ladi. Vertikal masofa, gorizantal masofa, zarar va

⁴⁵ Goody E. Question and Politeness. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – P. 76.

⁴⁶ Leech G. The pragmatics of politeness. – Oxford University Press, 2014. – P. 87-107.

foyda, talab va majburiyatlar kuchi, o‘z va o‘zga guruh munosabati yuqorida aytib o‘tilgan shkalani tashkil etuvchi tarkib hisoblanadi. Vertikal masofa J.Leech izohiga ko‘ra Braun va Levinsonning mavqe omiliga to‘g‘ri keladi hamda jamiyatdagi status, mavqe, rol, yosh kabi (M) omil orqali ifodalanadi. Vertikal masofa esa ijtimoiy munosabatlarda adresant va adresatning yaqinlik darajasi, tanishligi, begonaligi kabi omillarni ifodalovchi (I) omilga teng.



2.3-rasm. Xushmuomalalik strategiyalariga ta’sir etuvchi vertikal va gorizantal omillar.

J.Lichning to‘rt yoki besh o‘lchovli xushmuomalalik omillarini taklif etish barobarida, yuqorida keltirib o‘tilgan besh omildan biri foyda va zararni ifodalovchi Braun va Levinson taklif etgan ta’sir darajasi (T_x) omiliga tengdir. Bu omil shakllanishida foyda, zarar, olqish, marhamat, majburiyat kabilar muloqotda yetkazilayotgan fikr uchun haqiqiy ijtimoiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda, ba’zi holatlarda majburiyat kuchi shkalasi Braun va Levinson taklif etgan ta’sir darajasi (T_x) omili bilan bir vazifada qo‘llanilishi hamda bir xil me’yor ekanligi isbotlangan. Shuning uchun ham to‘rt o‘lchovli xushmuomalalikni ifodalash holatlari keltirib o‘tilgan.

Shuni aytib o‘tish joizki, bu formula ba’zi olimlar tomonidan qat’iy tanqidlarga uchradi. Chun va Yun o‘zining “Apology strategies between social unequals in The Dream of the Red Chamber” nomli maqolalarida bu formulaga o‘z

munosabatlarini berib o'tgan⁴⁷. Chun va Yun bu borada quyidagicha bahs olib borishadi, "...formuladagi $M(T,S)$ positsiyasi $M(T \leftrightarrow S)$ tarzida ifodalanishi kerak, zero, so'zlovchining ham tinglovchi bilan munosabatida o'z mavqe kuchi mavjud. Tadqiqotchilar o'z ishlarida keltirib o'tishicha, mavqening tanishlik tushunchasiga ajratilishi va yaqinlik, yoqtirish kabi munosabatlarga ta'sir etishi muhim sanaladi. Ma'lum bo'ladiki, yuqoridagi tushunchalar muloqot jarayonida vertikal o'qdagi omillar alohida ta'sirga ega. Shunungdek, xushmuomalalik strategiyalarini tanlashga ta'sir etuvchi omillardan vertikal o'qda o'z ifodasini topgan yosh, jins, tevarak-atrof va muhit kabilar ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishdagi asosiy jihatlardandir. Bunday maxsus madaniy o'lchovlar iyerarxiyasi, ijtimoiy masofa va bosim darajasiga asoslangan turli-tuman omillar madaniyatlararo muloqotda xushmuomalalikni aniqlashga mos va xosdir⁴⁸. Xushmuomalalikning gorizantal va vertikal (Mavqe va Ijtimoiy masofa) o'qlaridagi masofaning tahlili Sharq va G'arb madaniyatida farqlanadi. "Mavqe" bunday faqrlanishda uncha mos bo'lmagan atama bo'lib qoladi. Har bir madaniyatda qabul qilingan normalar, qadriyatlar asosida muloqotda namoyon bo'ladi.

Sh.Safarov ta'kidlaganidek: "Nutqiy faoliyat tashabbuskori, ya'ni so'zlovchi shaxs obyekt haqidagi ma'lumotni tinglovchiga yetkazish uchun ushbu obyektning qandaydir xislatlarini tanlaydi va shu xislat asosida obyektga baho beradi hamda baho ma'lumotini adresatga uzatadi. Bunday baho berish axboroti esa, o'z navbatida, tinglovchiga ta'sir o'tkazish va uni biror-bir xatti-harakat, faoliyatga undash maqsadi uchun xizmat qiladi⁴⁹". Shuni inobatga olib aytish mumkinki, muloqot jrayonida ishtirokchilarning qaysi strategiyaga tayangan holda suhbatni davom ettirishi, Braun va Levinson hamda J.Lich taklif etgan omillarning qay birini qo'llash muloqot ishtirokchilarining qobiliyati va lisoniy vositalarga boyligi ko'lamiga bog'liq bo'lib qoladi. N.F.Qosimova aytib o'tganidek "...lisoniy belgi jamiyat ehtiyojida an'anaga bog'liq bo'lib, turg'unlik kasb etadi. Biroq uning

⁴⁷ Chun L., Yun Z. Apology strategies between social unequals in The Dream of the Red Chamber. Chinese Language and Discourse 1(2): 264-287. 2010. – P. 6

⁴⁸ Brown P & Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 17

⁴⁹ Сафаров Ш.С. Прагмалингвистика. Монография. – Тошкент, 2008. – Б. 36.

shart-sharoitlari o‘zgarganda, vaqt nuqtayi nazaridan o‘zgaruvchanlik xususiyatini namoyon qiladi⁵⁰”.



2.4-rasm. Xushmuomalalikning absolyut va nisbiy turlari va ularning lisoniy, kontekstual namoyon bo‘lishi. (Leech G. The pragmatics of politeness. p. 88.)

III BOB. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASINING SOTSIOLINGVISTIK QIYOSIY TAHLILI

3.1. Ingliz va o‘zbek tillarida xushmuomalalik, mavqe va kontekstning sotsiolingvistik kategoriya sifatida voqelanishi.

Xushmuomalalik kategoriyasining bir faktori bo‘lgan ishdagi mavqe va lavozim masalasi muloqotning samarali kechishini ta’minlovchi bir omil

⁵⁰ Қосимова Н.Ф. Лисоний белги асимметрияси ва унинг сўроқ гап таржимасида воқеланиши. Филол. фан. док. ... диссертация. – Тошкент, 2018. – 164 б.

hisoblanadi⁵¹. Sotsiologik va psixologik nuqtayi nazardan ishdagi mavqe o'ziga xos nisbiy tushuncha bo'lib, u boshqalarni boshqarish qobiliyatini va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Til esa o'z navbatida ishdagi mavqeni ifodalashning muhim vositasi va shu bilan birga ijtimoiy voqelikni qurishda juda muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

1-misol.

Matn : Idorada ishlovchi tijorat tashkiloting loyiha jamoasi odatiy haftalik yig'ilishi.

1 Har: look's like there's been actually a request for screendumps

2 I know it was outside of the scope

3 but people will be pretty worried about it

4 Cla: no screendumps

5 Matt: we-

6 Cla: no screendumps

7 Peg: [sarcastically] thank you Clara

8 Pla: /no screendumps\

9 Matt: /we know\we know you didn't want them and we um er/we've\

10 Cla: /that does not\ meet the criteria

[several reasons provided why screendumps should be allowed]

11 Cla: thanks for looking at that though

12 San: so that's a clear well maybe no

13 Cla: it's a no

14 San: it's a no a royal no

15 Cla: did people feel disempowered by that decision

16 Peg: [sarcastically] no

Keltirib o'tilgan idora majlisidan olingan matnda yuqori lavozim egasi va xodimlarning o'rtasida keskin tarang vaziyat va boshliqning xodimlar bilan

⁵¹ Holmes J. & Stubbe M., Power and Politeness in the Workplace: A Sociolinguistic Analysis of Talk at Work . – London: Pearson Education Limited, 2014. – P. 1-17.

munosabatidagi qo‘pollikni ifodalovchi vositalarni ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, bunda ish sharoitida qo‘llanadigan so‘z va iboralarni kuzatish mumkin.

Mazkur matndan shuni bilish mumkinki, loyiha jamoasi ish bo‘yicha boshqa xodimlarga ko‘rsatma berish haqida suhbatlashyapti. Bir necha haftadan beri ishlab kelayotgan guruhda Klara (Clara) bosh direktor, Sendi (Sandy) esa menejer. Klara boshliq sifatida o‘z nutqida *“no screendumps”* (4,6,8-qatorlarda) direktivini aniq va takroriy tarzda qo‘llashi uning tashkilotdagi mavqeyini yuqoriligini isbotlaydi. Biroq u xushmuomalalik tamoyillariga bo‘ysunmay muomalada bo‘lgan. Lekin boshqa tomondan jamoaning yaxshi kirishib ketganligi, Klaraning bunday muomalasiga qaramay birdamligi yaxshi ish munosabatlarini saqlab qolgan. Peggining (Peggy) sarkazm bilan aytilgan *“thank you Clara”* (11-qator) jumlasini tarang vaziyatni yumshatuvchi ilk jumla bo‘ldi. Sendining mohirlik bilan aytilgan kulgili jumlasini *“so that’s a clear well maybe no”* (12- qator) Klaraning *“it’s a no”* (13- qator) va *it’s a no a royal no* (14- qator) takrorlanuvchi jummalari uning tom ma’noda “qirolichalik” mavqeyini ko‘rsatadi.

15-qatordagi Klaraning *“did people feel disempowered by that decision”* ochiq direktivi (‘bald-on-record’ directives) esa majlis yakunida jamoa a’zolarining obro‘yiga putur yetkazmagan holda majlisni xulosalaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish joizki, ish joyida mavqe bir necha yo‘llar va lisoniy vositalar bilan namoyon bo‘lishi mumkin ekan. Misolda keltirilgan Klaraning avtoretar mavqeyi o‘z ish joyida xodimlarning rioya etishi kerak bo‘lgan qoidalarni o‘rnata olgan. Bu esa matnda xushmuomalalik va ijtimoiy faktor bo‘lgan mavqeni ifodalovchi til vositalari orqali namoyon bo‘ladi.

2-misol .

- 1 Leila: I think that Kerry and Zoe could do with having a little sit down
- 2 and just talking through about the fly-
- 3 whether or not to get the flying filers in to replace Kerry or not
- 4 and if you got the flying filers in Kerry could come and help with the
- 5 information but I think you need to work that through it’s gonna be +

- 6 you know what will work
7 cos I mean I think you've got a wee bit of a difference here
8 in that you're obviously a little bit uncomfortable about a new set of
9 people and I can understand that because you're thinking consistency.

Ushbu matnda keltirilgan misolda Leyla (Leila) tijorat tashkilotining menejeri, Zoya (Zoe) esa jamoaning yetakchi xodimi. Matnda tashkilotning turli vazifalarini taqsimlash to'g'risida so'z boradi. Birinchi keltirib o'tgan matndagi holatdan farqli tarzda ikkinchi vaziyatda boshliq va xodim o'rtasida xushmuomalalik va adresant obro'si (face need) bilan hisoblashgan holatda fikrlar ifodalangan. Bu esa quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

1) Leyla o'z fikri, qarorini ta'kidlab o'tsa ham (4-qator) xodimi Zoyaning ham qarashlarini keskin rad etmaydi va uni o'z fikrlariga ochiq-oydin ko'nishga majburlamaydi (1-3 qator).

2) Leylaning Zoya qarashlari va fikri bilan hisoblashishi uning nutqi davomida juda ko'p qo'llanilgan ikkinchi darajali birliklar (hedges)ning kuzatilishi bilan tasdiqlanadi. Bularga *I think* (1, 5, 7- qatorlar), *you know* (6-qator) va *I mean* (7-qator) kabi Leyla nutqidagi direktiv kuchini pasaytiruvchi pragmatik vositalar, shuningdek, kelishmovchilikka olib keluvchi muammoli vaziyatni yumshatuvchi *little* (1-qator), *a wee bit of* (7-qator) and *a little bit* (8-qator) kabi ozaytirma iboralarni aytib o'tish mumkin.

Demak, yuqoridagi misollar tahlilidan ko'rinib turibdiki, ish joyida mavqe va xushmuomalalikning ifodalanishida kontekst muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday jumla, iboraning kontekstda qanday ifodalanishi adresatning asosiy maqsadini tushunish mumkin. Masalan, uzoq muhokamaning so'ngida aytilgan rozilik iborasi bo'lgan "yes" jumlasining ifoda mazmuni shoshilib tezda aytilgan "yes" iborasidan mazmunan farq qiladi.

O'zbek tilshunosligida xushmuomalalik kategoriyasini aynan mavqe, kontekst, xushmuomalalik triadasi doirasida o'rganish jarayonida juda ko'p strategiyalar ijobiy subkategoriyalar vositasida voqelanganligining guvohi bo'ldik. Masalan:

3) Mayor telefondagi gapini tugatmay, bo'lim boshlig'i yosh yigitni boshlab xonaga kirib keldi.

– Ukamizni qanotingizga oling: Tal'at Shoumarov. Ikkinchi kursda o'qir ekanlar. Praktikantlar. Afg'onistonda xizmat qilgan ekanlar. Kuch yetarli. Ammo bilim bilan tajriba boshqa. [“Alvido bolalik” 11-b.]

Mazkur parchadagi “ukamiz” so'zi ish diskursida qo'llanilishi, endigina ishga kirmoqchi bo'lgan yosh kadrni yaqin olib gapirish va shu orqali undagi qo'rquv, hayajonni kamaytirish va do'stona muomalada bo'lishni ifoda etgan. Shuningdek, “ukamiz” so'zidagi -miz qo'shimchasi ham hurmatni ifodalab, ijobiy xushmuomalalik strategiyasi birligi sifatida guruhga taalluqlilikni anglatadi. Mazkur kontekstda mayor, bo'lim boshlig'i va yosh xodim ishtirok etishi kontekstual omil, ya'ni adresatning so'zlovchiga nisbatan ijtimoiy mavqe kuchi (M), adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy masofa (I) va ta'sir darajasining ta'sirida mazkur suhbatda har bir ishtirokchi xushmuomalalik strategiyalarini qo'llagan.

3) Mayor shularni xayolidan o'tkazib, biroz jim qoldi. Keyin uni qo'ltig'idan olib asta yurdi.

– Siz Afg'onistonda o'lim bilan yuzma-yuz bo'lib qaytgansiz. Ro'parangizda ashaddiy dushmanlar bilan bir qatorda adashganlar ham bo'lgan, shundaymi?

– Ular-chi? Ular to'g'ri yo'lga tushgunlaricha o'g'rilik qilaveradilar, odam o'ldiraveradilar. Biz esa imkon tug'dirib beraveramizmi? Unda bizning nima keragimiz bor?

– Inim, ko'nglingizga olmang-u, ammo bir savolim bor: bu sohaga nima uchun kir dingiz? [“Alvido bolalik” 21-b.]

Ushbu gaplardagi xushmuomalalik strategiyalaridan ijobiy substrategiyasining ko'p qo'llanganligi mavqe jihatdan yuqorida bo'lgan mayorning yosh amaliyotchi Tal'atga nisbatan suhbatning boshidan oxirigacha yumshoq muomalada bo'lib, vertikal va gorizantal o'qlarda ifodasini topgan faktorlar orqali voqelanadi.

Xushmuomalalik kategoriyasiga xos xususiyatlarni leksik sathda aks ettirgan misollarni izohlashga e'tiborimizni qaratsak:

4) *"I'd like to see Garvagh Glebe. Is the house open to visitors?" She gave directions much the way Maeve had the day before.*

"Go left for a bit; go right for a bit more. Pull over and ask if you get lost, but you shouldn't get lost because it's not that far."

"Thank you, Deirdre. And if you talk to Maeve, would you thank her for me as well? It meant a great deal to me to find those graves."

"Maeve O'Toole is a veritable fountain of information. She knows more than all the rest of us put together. I'm not surprised she knew something about your kin".

[*"What the wind knows"* p.48]

Yuqorida keltirilgan asardagi ikki shaxs orasidagi suhbatda do'stona ohangdagi muloqot jarayoni berilgan. O'zining ota-bobolarini xoki poyi qo'yilgan qabristonni qidirayotgan Anni shu shaharchadagi uning qarindoshlarini taniydigan Deyrdr bilan suhbatida Deyrdr tomonidan *"a veritable fountain of information"* metaforik ibora yordamida hamda *"...She knows more than all the rest of us put together"* jumlasini orqali ijtimoiy faktor sanaladigan ijtimoiy masofa tufayli bilvosita xushmuomalalik strategiyalari qo'llanilgan. Mazkur gapda muloqot jarayonida ishtirok etmayotgan tomonga hurmat ko'rsatish holatini ham ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'z navbatida uning Anniga hurmatini ifodalaydi. Suhbat ishtirokchilari salbiy xushmuomalalikning bilvosita murojaat shaklidan foydalanib, o'z nutqini yumshatishga harakat qilyapti. Ann xushmuomalalik markeri *"thank you"*ni qo'llashi uning Deydrdan naqadar minnatdorligini ifodalab beradi hamda *"It meant a great deal to me"* jumlasini esa bu minnatdorchilikni kuchaytirib beradi.

Keltirib o'tilgan gapni tahlil qilish jarayonida xushmuomalalik strategiyalarining voqelanishida hamda ma'lum bir diskursiv maqsadlarni ifoda etishda ta'sir etuvchi faktorlarning umumiy tasviri paydo bo'ladi.

Tahlildan ayon bo'ladiki, mazkur parchada berilgan vaziyatda Anni va Deydrning o'zaro nutqiy muloqotida xushmuomalalik strategiyalariga ta'sir

etuvchi “vertikal va gorizantal” o‘qlar nisbatiga ko‘ra har ikkala muloqot ishtirokchining yoshi, jinsi (vertikal) va yaqinlik darajasi (gorizanlar)ni hisobga olgan holda yuzaga kelgan.

5) “Maeve?”

“She said you’d come.”

“Deirdre? Yes. She also sent your book.” I dug it from my purse and took a few more steps.

“Not Deirdre, goose. Annie. Annie said you’d come. I need tea. We’ll have tea,” she muttered, moving once again. She sat at the table and looked at me expectantly. I debated making my excuses. I suddenly felt like I was caught in a Dickens novel, taking tea with Miss Havisham. I had no desire to eat ancient wedding cake and drink Earl Grey in dusty teacups. “Oh. That’s very kind of you,” I hedged, setting the bad-boy billionaire book on the end table nearest me. [“What the wind knows” p.31]

Mazkur parchada xushmuomalalik strategiyalaridan biri ijobiy xushmuomalalik substrategiyalarining qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

Xushmuomalalik substrategiyalarini quyidagicha ko‘rib chiqsa bo‘ladi:

6) *Once I turned twenty-one, I was free to walk out the door, providing the psych Doctor signed off that I was normal.*

“Those girls give you any more trouble, you come to me, and I’ll take care of it.”

“You will?” My eyes narrowed. “Why?”

“Because no one deserves to be mistreated.” Luanne rose from her seat.

“Anytime you want to check on yer stuff, let me know, and I’ll unlock the cabinet.”

“Thanks. Really, thank you.”

A gentle smile tugged the corners of her thick lips, and she patted my arm.

“Everything’s going to be all right, darlin’. Just hang in there. I’ll help you.”

“Yes, ma’am.” I jumped to my feet. “Guess I better get back to the laundry room.” Luanne glanced at her watch. “No need. Your shift ends in thirty minutes anyway. Just chill, and I’ll cover for you.” [“Cold waters” p.79]

Xushmuomalalikning ijobiy strategiyasidan takliflar, va’dalar substrategiyasi yordamida voqelangan *“I’ll take care of it”, “I’ll unlock the cabinet”, “I’ll cover for you”, “I’ll help you”* kabi jumlarlar mavqe va ijtimoiy masofa kabi faktorlar ta’sirida asarda qiyin vaziyatda bo’lgan Violetga shifokor Luan tomonidan kutilmagan mehribonchilik bo’lib taassurot qoldiradi. Shuning ta’sirida Violet ham o’z nutqida *“You will?”, “Why?”* ijobiy xushmuomalalik strategiyasining sababini so’rash substrategiyasi orqali shubha va tushunmovchiligiga aniqlik kiritadi. Shuningdek, *“I’ll...”* jumalari mazkur kontekstda vaziyat shifokor tomonidan nazorat qilinayotganligiga urg’u berib, mavqeni oshirib ko’rsatishda xizmat qiladi. Gorizantal o’qda joylashgan yaqinlik va begonalik kabi ijtimoiy masofani belgilovchi omillar sababli shifokor Luan Violetning bu shubhasiga *“no one deserves to be mistreated”* shaxsi noma’lum gap vositasida salbiy xushmuomalalik strategiyasini ifoda etadi. *“I’ll take care of it”, “I’ll unlock the cabinet”, “I’ll cover for you”, “I’ll help you”* kabi gaplar ishlatishdan oldin shifokor Luanning *“Just hang in there”, “Just chill”* imperativlaridagi *“just”* ta’sirni minimallashtirish substrategiyasi shifokor nutqidagi mazkur gaplarni maslahat mazmunida ifodalanganini ko’rsatadi.

7) He stood up from his chair and jabbed his index finger at me. “I don’t trust you. Not a damn bit. I might not be able to prove you’ve done anything improper, but everything you’ve done connected with the Henderson and Dalfred cases is mighty questionable. You’re unfit for this office.”

“That’s unfortunate you feel that way,” I said with a poker face of calm. “I don’t plan on leaving. You and your nephew can’t make me either. Not until I’m good and ready.”

“I want you out of here. Effective immediately.” He sat back down abruptly and pressed record on the tape recorder again. “Sign this resignation I’ve prepared.

It's a fairly generous retirement incentive." He shoved paperwork at me, and I barely restrained myself from giving a low whistle of surprise as I read the figures. The incentive was generous. Very generous. Seemed I was "good and ready" to leave after all.

I rose to my feet and waved the papers in my hand. "The terms appear to meet with my approval. As soon as my attorney reviews it, I'll sign. I'll get back to you within the week. You and Josh just have to wait a little longer, and you can have this damn place to yourselves."

Dan's mouth twisted. "You've turned into a real bastard, Kimbrel. Take leave without pay until you sign those papers. And don't wait too long, or I'll have the offer nulled and voided."

"Thank you for your kind offer, sir. And by the way, you might want to delete your final words. The upstanding citizens at your civic groups and church might be surprised at your language. Bastard." ["Cold waters"]p.263]

Mazkur matnda ishda boshliq va xodim o'rtasida kechgan ziddiyatli vaziyatda boshliq nutqida *"Not a damn bit"*, *"You're unfit for this office."*, *"Sign this"*, *"It's a fairly generous ..."*, *"a real bastard"* kabi xos markerlarni qo'llagan, biroq bu salbiy munosabatni ifodalab, diskursiv maqsadi qo'pollikni, keskin qarorni bayon etish vazifasini o'taydi. Rahbar nutqidagi bevosita substrategiyalar mavqeni ko'rsatishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Den Kimbrelga ishdan bo'shash arizasiga imzo qo'yishni aytishdan oldin ishlatgan gapini bevosita strategiya orqali direktiv shaklda yetkazadi hamda *"sign this..."* imperativi bu vaziyatda bosim darajasini yanayam kuchaytiradi. O'z navbatida, Kimbrel nutqidagi *"thank you for your kind offer, sir"* aynan minnatdorchilikni ifodalash uchun emas, balki norozilikning yuqori darajadagi hurmat shakli sifatida ko'zga tashlanib, kinoya, istehzoni ifodalagan. Qo'pollik shakliga xushmuomalalik strategiyalari vositasida verballashgan Kembrelning javobida hurmatni saqlagan holda, hurmatsizlik ifoda etilgan. Aynan shu vaziyatda diskursiv dinamikani ko'rish mumkin. Kembrelning shu gapini YSA (Face Saving Act) ga yorqin misol bo'ladi. Boshliq tomonidan aytilgan *"a real bastard"* YTA (Face Threatening Act)

boʻlib, uning nutqidagi eng yuqori darajadagi gʻazab va nafrat belgisi boʻlib xizmat qiladi.

Muloqotda ziddiyatli vaziyatni keltirib chiqaruvchi qator markerlar, leksik va grammatik birliklarni oʻz nutqida ishlatgan boshliq bevosita strategiyani qoʻllagan. Bunday muloqotda feysga tahdid etuvchi bevositalikning taʼsirini yumshatuvchi ijobiy va bilvosita strategiyalar Kimbrelning nutqida xushmuomalalikning ifodasi sifatida aks etgan. *“That’s unfortunate you feel that way”* misolidagi tinglovchiga hamohang boʻlish, hamdardlik, tushunish kabi ijobiy strategiyaning substrategiyasi Kimbrelning nutqida boshligʻi Denga bosiqlik bilan kesatish orqali diskursiv maqsadini ifoda etishini kuzatdik. Denning *“bastard”* jargon soʻzni qoʻllashi oʻta hurmatsizlik ifodasi sifatida gavdalanadi. Biroq bu jargon soʻzga javoban Kimbrel beparvolik bilan lekin odob doirasida fikrini bildirib, bosim darajasini minimallashtirishga erishgan.

8) *“How are your sister and father?”*

“Fine.

“Good, good,” he muttered. An awkward silence gathered between us.

“Guess I’ll be moving on then,” I said lamely.

“Okay. Good to see you. And here ...” He pulled a card from his pocket and held it out to me. “If you ever need anything, call me. I mean it.” His kindness touched me and made me uneasy, all at the same time. I stuffed the card in my purse. “Thanks.”

“My pleasure.” [“Cold waters” p.55]

Detektiv oʻz nutqida xushmuomalalikning ijobiy substrategiyalarini qoʻllagan, Violet esa negativ substrategiyalarni ishlatgan. Bu muloqot ishtirokchilarining intensiyasiyaga bogʻliq holda voqelanadi. Yosh va ijtimoiy masofa feysni saqlash, muloqotda tinglovchi va soʻzlovchi munosabatida yaqinlashish strategiyasining yuzaga kelish omillari sifatida namoyon boʻlgan. Xushmuomalalik darajasiga koʻra *“Thanks”* minnatdorchilikni ifodalashda *“Thank you”* yoki *“Thank you so much”* variantlaridan mazmun va kontekstga koʻra

farqlanadi. Bu misoldagi Violet qo‘llagan shaklda kutilmagan yaxshi munosabat va qo‘llovdan dovdirab qolganlik holatini ifodalaydi.

9) – *Qo‘limdan kelarmikin? – dedim Pyotr Ivanovichga ko‘z qirimni tashlab.*

– *Qo‘lingdan kelmagan ishni hech qachon senga taklif qilmaganman.*

– *Ishonchingiz uchun rahmat, o‘rtoq, general! [“Afg‘on shamoli” 5-b.]*

10) – *O‘rtoq, general, siz ham meni yaxshi bilasiz! Besh qo‘lini og‘ziga tiqadiganlardan emasman. Bajarishim lozim bo‘lgan topshirig‘ingiz qiymatini o‘zingiz adolatli baholasangiz degandim. Har qalay men ham bu ishda sizlarga sherikman.*

– *Tushundim, – dedi Pyotr Ivanovich jiddiy ohangda. – Teppa-tengdan bo‘laylik demoqchimisan, mayli sen aytgancha bo‘la qolsin. Yana yuz ming dollar qo‘shdim. Jami bo‘lib uch yuz olasan. [“Afg‘on shamoli” 7-b.]*

O‘zbek badiiy diskursidagi mazkur misollarda har ikkala holatda ham mavqe jihatdan yuqori iyerarxiyadagi boshliqning xodim bilan bo‘lgan suhbatida hamjihatlik, do‘stona muhitni berishda ijobiy xushmuomalalik strategiyasi qo‘llanganining guvohi bo‘ldik. 9-misoldagi “*Qo‘lingdan kelmagan ishni hech qachon senga taklif qilmaganman*” direktivida ham 10-misoldagi “*Tushundim*”, “*mayli*” kabi jumalalarda boshliq va xodim o‘rtasida xushmuomalalik va adresant obro‘si bilan hisoblashgan holatda fikrlar verballashganini ko‘rish mumkin. Vertikal va gorizantal o‘qlardagi faktorlardan deyarli barchasining ta’siri yuqoridagi ikkala misolda ham o‘z aksini topgan.

11) – *Shu oyning oxiriga meni Istambulga chaqirishyapti. Olingan qurol-aslahalar, pullar haqida hisobot berishim kerak.*

– *Bitta varoqqa yozib olaverasiz-da, kim tekshirib o‘tiribdi!*

– *Xomsan, Umar! Axir olingan va berilgan narsalar egali. Daftarda ismi-sharifi ko‘rsatilgan. Yurtdagi tarafdorlarimiz qo‘lida mingdan ziyod qurol-aslaha, ikki milliondan ko‘p dollar bor. Ularning nomini havodan olamanmi? Bundan tashqari, maxfiy ma’lumotlar mavjud.*

– *Bu yog‘ini o‘ylamayman, xo‘jayin.*

– *Mabodo yo‘qotgan bo‘lsa, hammasi tamom. Meni otishadi.*

- *Nafasingizni yel o‘chirsin, xo‘jayin!*
- *Ne‘matni yo‘qotish kerak! Buni faqat sen uddalaysan.*
- **Bosh ustiga, xo‘jayin!** [“Afg‘on shamoli” 39-b.]

Keltirib o‘tilgan mazkur misolda sotsiolingvistik tadqiqda sinfiy va ijtimoiy kelib chiqish kabi mezonga ko‘ra har ikkala asar qahramoni xo‘jayin va Umar nutqidagi gaplarda ba‘zi o‘rinlarda xushmuomalalik tamoyiliga bo‘ysungan holga, ba‘zilarida esa xizmatdagi xodimning boshliqqa nisbatan ishlatishi nojoiz bo‘lgan jummalarning qo‘llangani assimetrik munosabatni yuzaga keltirgan. Shuningdek, “*Nafasingizni yel o‘chirsin...*” ko‘rinishidagi imperativning ta’sir darajasini “*xo‘jayin*” murojaat shakli bir muncha yumshatgan. “*Bosh ustiga*” iborasi “*bajonidil*”, “*xo‘p bo‘ladi*” kabi ma’nolarni anglatadi. Umarning har bir gapida “*Xo‘jayin*” so‘zining takror-takror qo‘llanishi mulozamatni ifodalagan.

Ko‘pincha, muloqotda ayollar yuqori darajadagi emotsional-ekspressiv atamalarni ko‘p qo‘llashadi va moslashib ketish kabi jihatlar bilan farqlanib turadi, ikkinchi tomonning fikrlarini diqqat bilan tinglab, suhbat jarayonida ustunlikka intilmaydilar. Erkaklar esa o‘z navbatida muloqotda jizzakiroq, vaziyatni o‘z nazoratlari ostiga olishga, kelishishga intiladilar.

Muloqotning gender o‘zgaruvchanligi mazkur tilning turli sathlarida, ya’ni fonetik, leksik, grammatik, semantik sathlarda namoyon bo‘ladi. Xushmuomalalik kategoriyasida genderlik xususiyatlarning turli sathda ifodalangan misollar orqali fikrlarni izohlashga e’tiborimizni qaratsak:

12) *He gave me the picture in his hand.*

“Who is this?” I asked, staring down at the woman who gazed fiercely back at me.

“That is your great-grandmother, Anne Finnegan Gallagher.”

“Your mother?” I asked.

“Yes,” he breathed.

“I look like her,” I said, delighted. The clothes she wore and the style of her hair made her an exotic, foreign creature, but the face looking up at me from decades past could have been my own.

“Yes. You do. Very much,” Eoin said.

"She's a little intense," I observed.

"Smiling wasn't the thing to do in those days."

"Ever?"

"No," he chortled, "not ever. Just not in pictures. We tried very hard to look more dignified than we were. Everyone wanted to be a revolutionary." ["What the wind knows" p.13]

Yuqoridagi misolda, Anni va bobosi Ionning katta buvisining suhbatini ko'rish vaqtidagi suhbatida bobosi Annining gaplarini *"Yes. You do. Very much"* kabi ijobiy strategiyali kelishuvga erishish substrategiyasini qo'llash orqali ma'qullaydi. Fikrini ma'qullash esa ta'sir darajasi kuchayib borish gradatsion holatda kechadi. Bunda shunchaki *"Yes"* so'zini ishlatmagan, balki *"You do"* birikmasi ta'sirida fikrini yanada kuchaytirib ifoda etgan. Gap oxiridagi *"Very much"* bo'rttirish substrategiyasi kuchli kelishuvni ifodalagan. *"Not ever. Just not in pictures. We tried very hard to look more dignified than we were. Everyone wanted to be a revolutionary."* Keltirib o'tilgan mazkur parchada Annining bobosi nevarasiga vaziyatning o'zgachaligini tushuntirishda *"just"* markeridan foydalangan. Bu marker mazkur suhbatda muloqot ishtirokchisining taklifini qo'llab-quvvatlashda ta'sir darajasini minimallashtirish maqsadida qo'llanilgan. Eionning nutqida *"We"* olmoshining ifodalanishi boboning nevara bilan avlodlar farqlanishi ruhiyatini beradi. Negativ xushmuomalalik strategiyasida *"we"* olmoshi qoidalarini umumiyalashtirish substrategiyasi bo'yicha Eionning harakatda ishtirok etish ko'rsatkichi bo'lib, o'zi va nevarasining yashagan davrlardagi farqqa urg'u beradi. Bu vaziyatda asar qahramoni Eion erkaklar nutqiga xos aniqlik va vaziyatni qo'lga olish xususiyatlarini ko'rish mumkin. Shuningdek, Annining nutqidagi *"intense"* sifatidagi *"a little"* ozaytirma markeri *"jiddiy"* so'ziga *"birozgina jiddiy"* kabi ma'no ottenkasini beradi. Bu esa o'z navbatida ayollar nutqidagi emotsionallikni ko'rsatadi.

13) *"Maeve?" I realized suddenly I didn't know her last name. "I'm sorry Deirdre didn't tell me your full name. Can I call you Maeve?"*

“I know you,” she said, her brow—already a topographic map of grooves and valleys—wrinkling even further. “You do?”

“I do.” [“What the wind knows” p.30]

14) “Can you grab on? I’ll pull you in,” he urged. I reached for the mirage and felt the sweet answer of solidity. The boat was real, as was the man, but I could only cling to the side, so grateful I began to cry.

“Good God. Where did you come from?” the man asked. His hands gripped mine, encircling my wrists. Then he was pulling me up and into the boat, with no assistance whatsoever from me.

“What the hell?” he hissed, and I cried out again. “What happened to you?” “You’ve been shot. What the bloody hell!” His brogue was so like Eoin’s, so comforting and welcome, it was as if Eoin himself had found me. I nodded weakly. Yes, I’d been shot. I didn’t understand it either, and I was tired. So tired. [“What the wind knows” p.54]

14-misollarda keltirilgan *“Good God.”*, *“What the hell?”*, *“What the bloody hell!”* evfemik birliklari (rude way of expressing great anger⁵²) muloqotda qo‘pollikning ifoda vositasi sifatida ishlatilgan. Erkaklar nutqida ko‘p kuzatiladigan mazkur so‘zlar muloqotda so‘zlovchining ruhiy va emotsional holatini ko‘rsatadi. Norasmiy muloqot iboralari sifatida namoyon bo‘luvchi bunday evfemik birliklariga o‘zbek muloqotida ingliz tilidagiga qaraganda kamroq duch kelindi.

13-gapdagi xushmuomalalik kategoriyasini ifodalagan *“Can I call you Maeve?”* grammatik gap qurilmasida ishlatilgan *Can* modal fe’li 14-gapdagi *“Can you grab on?”* gapida nazarda tutilgan diskursiv maqsaddan farqlanadi. Ruxsat so‘rash va imkoniyatni aniqlab olishni ifodalagan mazkur so‘roq gaplar birinchi shaxs va ikkinchi shaxsning harakatda ishtirokidagi o‘rnini aniqlab beradi. *“I’ll pull you in”* xushmuomalalik strategiyalaridan ijobiy strategiya vositasida voqelangan hamda muloqotda taklif, va’dani ifodalaydi. 14-gapdagi mazkur

⁵² <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/bloody-hell>

vaziyatda notanish odamning yaralangan Anniga yordam qo‘lini cho‘zishida qo‘llagan *“I’ll pull you in”* gapida Anniga qa‘iylik hissini berish bilan birga qo‘llab-quvvatlanish ishonchini ham beradi.

15) *“Maybe I can just wash a little? With a cloth? Brush my teeth, maybe wash my hair?” His eyes fell on the tangled mess and quickly looked away. He nodded.*

“If you feel strong enough, then yes. But the help is gone. Even Brigid is not here to assist you.”

“I can do it myself, Thomas.”

“Not your hair, you can’t. You’ll pull the stitches from your side. I’ll do it,” he said stiffly, drawing back the blankets and helping me rise. “Can you walk? [“What the wind knows”. p.73]

Anni og‘ir jarohatdan keyin tuzalgach, yuvinishini xohlashini ifodalashda *“Maybe”, “just”, “a little”* kabi xushmuomalalik markerlarini qo‘llaydi. *“I want to wash”* gapining bilvositalik bilan qo‘llash orqali tinglovchiga hurmat bilan birga, yordamga ehtiyoji borligini namoyon etadi. Ta’sirni minimallashtirish substrategiyasi Anni ishlatgan *“just”* va *“a little”* so‘zlarida verballashadi. Tomas, uyning egasi Annining fikriga to‘g‘ridan to‘g‘ri rozilik bermay, *“If”* li konstruksiya orqali aytadi. Bu vaziyatda u Annining hali kuchga to‘lmaganini bilib turgan bo‘lsa ham uning bu xohishiga qat’iy rad javobini bermay, umumlashtirish substrategiyasini qo‘llaydi va *“even”* so‘zi yordamida Anniga imkon qoldirmaslikka harakat qiladi va bu fikrdan qaytishiga undaydi. Mazkur misolda ikkala suhbat ishtirokchisining xushmuomalalik strategiyalarini tanlash jarayonida ijtimoiy masofa va ta’sir darajasi kabi omillar katta ahamiyat kasb etadi. Anni Tomasning uyida davolanayotgan notanish ayol bemor sifatida har bir fikrini mos tartibdi namoyon etadi. Tomas esa vaziyatda u ustunlik ko‘rsatishini, hamma narsa uning nazorati ostidaligini o‘zi ishlatgan diskursiv markerlarda namoyon etadi.

16) *Asror itoatkorlik bilan qadamini tezlatib, zinadan ko‘tarildi. Onasi uni ko‘rib xursand bo‘lib ketdi:*

– *Voy, keldingmi-yey, bolajon, dadang yonib turuvdi-ya... Dadangning odatlarini bilasan-ku, sal vaqtliroq kelmaysanmi? Qorning to‘qmi, ke, bir piyolagina choy ichib ol. Ichmaysanmi, bo‘lmasa tezgina tusha qol. Yorilib ketmasinlar dadang.* [“Alvido bolalik” 128-b.]

Asror va onasining suhbatlari ularning o‘zaro munosabatini aniq qilib ko‘rsatib turibdi. Bunda ona bolasini ayab, kuyunib gapirishi, hukmini o‘tkazadigan imperativ konstruksiya ishlatmayapti, aksincha, umumiy so‘roq gapga bo‘lishsiz ma’no beruvchi “*keldingmi-yey*” so‘zi Asrorga nisbatan hurmatini ko‘rsatib turibdi. Ayol nutqidagi “*bir piyolagina*”, “*tezgina*” kabi aniq lisoniy vositalar imkoniyatlarni minimallashtirish substrategiyasi yordamida ifodalanganligini ko‘rish mumkin. Shunisi e’tiborliki, ayol o‘z nutqida eriga bo‘lgan hurmatni ifodalovchi “*Dadangning odatlarini bilasan-ku*”, “*Yorilib ketmasinlar dadang*” lisoniy birliklar suhbatda ishtirok etmayotgan bo‘lsa-da, oilada erkakning mavqeyi yuqori ekanligini ifodalaydi.

Ingliz va o‘zbek adabiyotlarida erkak kishi ayol kishi tomonidan hurmat qilinishiga ko‘plab misollarda guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ayol kishi ko‘pgina vaziyatlarda erkak kishining ko‘nglini ko‘tarish, unga nisbatan hurmatini ko‘rsatish maqsadida umumiy so‘roq gap konstruksiyasi, his-hayajonni ifodalovchi fonetik fenomenlar, bilvosita va ijobiy xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanadi. Masalan:

17) – *Dadasi, bemahalda eshik qoqqan kim ekan?*

– *O‘zimiznikilar. Indamay yotaver. Ozgina hisob-kitobli ishimiz bor!*

– *Dasturxon tayyorlaymi?*

– *Kerak emas, ular shoshib turishibdi.*

– *Voy-yey, yarim tunda ham tinmaysiz-da, a?...* [“Afg‘on shamoli” 169-b.]

18) – *Siz qanaqa orzu bilan chiqasiz? – xayolimni o‘zimga keltirdi Maqsadbek.*

– *Oldin siznikini eshitay, keyin men aytaman.*

– *Bo‘pti, kelishdik.* [“O‘sha kun” 14-b.]

19) – *Hoy, uxlamasdan bitta ishni o‘ylasangiz-chi, – yana Rahimjon akaga yolborishni boshlayman. – Hech qursa alohida oshxona quraylik. Shu o‘tirishimiz hech yarashmayapti. Qozon osding deguncha, uchta uyga yog‘ isi to‘ladi.*

– Bo‘ladi, hammasi bo‘ladi. Ko‘p oshiqqan xotin bo‘ldingiz-da. [“O‘sha kun” 9-b.]

21) *Salimning onasi molga tert qorayotgan ekan. Asrorning salomiga alik oldi-yu, ishini qilaverdi.*

– O‘rtog‘ing yo‘q uyda, – dedi g‘o‘dayib turgan Asrorga bir qarab olib.

– Bilaman, – dedi Asror, – aytib qo‘y, devdi. Musobaqaga ketdi. Esimdan chiqibdi, shuni aytgani keluvdim.

– Qachon ketdi u, juvonmarg bo‘lgur.

– Kechamidi... o‘tgan kun. Shoshilib turgan ekan.

– Shoshmay bo‘yinginasi uzilsin. Onani ona demasa, otani ota demasa. Bokslariga iloyim qirg‘ingina kelsin.

– Musobaqa tugagandan keyin keladi.

– Kelmay go‘rga borarmidi, keladi mulla mingan eshakday bo‘li-i-ib. [“Alvido bolalik” 61-b.]

22) *– Ha, qaynsinglim kun sayin yasharib kelayapti! – dedi. – Sizdan aynitib, o‘n sakkiz yashar bo‘zbolaga beraman!*

– Bo‘lmasa, nimaga bunday qiladi?

– Men ne bilaman? Ana ayolingiz, ana siz! Gaplasha bering-da! (Kinoya)

[“Oydinda yurgan odamlar” 152-b.]

Misollardan ko‘rinib turibdiki, ayollar nutqida qarg‘ish evfemik birliklarining qo‘llanishi matnda ta’sirchanlikni, ekspressiv-emotsional ma’nomlarni ifodalaydi. 21-misolda Salimning onasi do‘sti Asror bilan olib borgan suhbatida *juvonmarg bo‘lgur, bo‘yinginasi uzilsin, bokslariga iloyim qirg‘ingina kelsin, kelmay go‘rga borarmidi* kabi o‘zbek ayollarining nutqida ko‘p ishlatiladigan qarg‘ish birliklari kontekstda ayolning so‘z tanlashiga ta’sir o‘tkazgan. 22-misolda yanganing Oymomoning eri bilan suhbatida hurmatni ifodalovchi birliklar aslida kesatiq, kinoya ma’nosini beradi. Suhbatning boshida xushmuomalalikning ijobiy

va bilvosita strategiyalaridan foydalanilgan bo'lsa, suhbat oxiri bevosita xushmuomalalik strategiyasini qo'llash bilan yakunlangan. Bunday jarayonda keskin munosabat muloqotda asabiy taranglashib muloqotga kirishgan har ikkala kommunikantlar keskin vaziyatni keltirib chiqargan. Jamiyatda ayollar va erkaklar nisbatan teng o'ringa ega bo'lish sa'y-harakatlari muloqot davomida ayol va erkak ishlatadigan lisoniy vositalarida keng ko'lamda farqlar borligini kuzatdik.

Shunday qilib, gender munosabatlar jamiyatdan ahamiyatga molik bo'lgan darajada o'zgarib borib, muayyan universal qolipga ega emasligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, gender tilshunosligida ayollar va erkaklar nutqining farqlari bo'yicha talaygina ma'lumotlar yig'ilgan bo'lib, ko'pgina tilshunolar ishida ayollar erkaklarga qaraganda e'tiborga molik bo'lgan til shakllarini qo'llashi va ularning nutqi o'zgaruvchanligi (variativ) tadqiq qilingan. Erkaklarning nutqi til o'zgarishlariga og'zaki nutqni jalb qila turib faollik bilan ko'nikma hosil qiladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, badiiy adabiyotlar tahlilida ayollar va erkaklar orasidagi nutq faoliyati xususiyatlari quyidagilarda aks etgan:

- a) badiiy adabiyotlarda ayol va erkakning jamiyatdagi o'rni;
- b) ayol va erkak nutqining fonetik jihatdan qo'llanishi;
- v) ayol va erkak nutqining grammatik jihatdan qo'llanishi;
- g) ayol va erkak nutqida leksik vositalar qo'llanishi.

Ingliz badiiy adabiyotidan olingan ayrim misollarda ayol nutqida bevosita va bilvosita strategiyalar aks etgan misollarga, erkak ayolning fikrini rad eta olmas holatlari uchradi. Ingliz madaniyatida bunday holat odatiy hisoblanib, o'zbek madaniyatida bunday holatlar uchramaydi. O'zbek badiiy adabiyotidan olingan misollarda o'zbek ayollarining nutq faoliyatidagi e'tiborga molik ana bir xususiyatining guvohi bo'ldik. Bunda ayollar nutqida suhbatdoshiga nisbatan hurmat, sabrlik, bir-birini o'zaro tushunishga intilish strategiyalari namoyon bo'lgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mazkur tillarda ayollar nutqida ifodalanayotgan hurmat erkaklar nutqiga qaraganda kuchli ifoda etilishi hamda ayollar hurmatga doir jumalarni to'liq va uzunroq tuzishlari aniqlandi. Ayollar

ijtimoiy masofani hisobga olgan holda, xushmuomalalikning ijobiy, bilvosita strategiyasilariga ko‘p murojaat qilishadi.

3.2. Ingliz va o‘zbek tillarida murojaat shakllari va mulozamat - manziratning sotsiolingvistik kategoriya sifatida voqelanishi

